**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo’lyozma huquqida

UDK 73/76:371.3(575.1)

ACHILOVA ZARINA XASANOVNA

# TALABALARGA DIZYNNI O’QITISHDA O’ZBEK XALQ AMALIY SAN’AT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

**5A140901 - Amaliy san’at mutaxasisigi**

**M a g i s t r**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

Ish ko’rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.
“Badiiy grafika va uni o’qitish metodologiyasi” kafedrasi mudiri

Prof. Muhammadiyev

M.O’

Ilmiy raxbar:

dots. Umarov M. .

**SAMARQAND – 2012**

Mavzu: **“Talabalarga dizaynni o’qitishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalaridan foydalanish”.**

**Kirish:**

**I-Bob** Talabalarga dizaynni o’qitishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamyati.

**1.1** Talabalarga dizaynni o’qitishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalaridan foydalanishning tarixiy taraqqiyoti.

**1.2** Talabalarga zamonaviy dizaynerlik faoliyatini ko’rinishlarining pedagogik tomonlari.

**Xulosa.**

**II-Bob**Talabalarga dizaynni o’qitishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalaridan foydalanishning shakl va usullari.

**2.1** Talabalarga dizaynni o’rgatishda Samarqand an’analaridan foydalanish.

**2.2** Talabalarning dizaynerlik faoliyatida hajmli tasvirlarning kompozitsiyasi.

**III-Bob** Talabalarga dizaynni o’rgatishdagi tadqiqot natijalari.

**3.1** Talabalarga dizaynni o’rgatishda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish

**3.2** Talabalarga dizayn san’atini o’ratishning tajriba – sinov ishlari borishi va natijasi.

**Umumiy xulosa.**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

**Ilovalar.**

## Mundarija

Kirish…………………………………………………………………………
…..3

I–Bob Talaabalarga dizayтni o'qitishda o'zbek xalq amaliy san'ati vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamyati…………………………………………………8

1.1 Talabalarga dizynni o'qitishda o'zbek xalq amaliy san'ati vositalaridan foydalanishning taraqqiyoti……………………………………………………..8-23

1.2 Talabalarga zamonaviy dizaynerlik faoliyatini ko'rinishlarining pedagogik tomonlari…………………………………………………………………24-37

Xulosa…………………………………………………………………………..
38

II – bob Talabalarga dizaynni o'qitishda o'zbek xalq amaliy san'ati vositalaridan foydalanishning shakl vausullari…………………………………………………..39

2.1 Talabalarga dizaynni o'rgatishda Samarqand an'analaridan foydalanish……39-43

2.2 Talabalarga dizaynerlik faoliyatidahajmli tasvirlarning kompozitsiyasi……..44-53

III-Bob Talabalarga dizaynni o'rgatishdagi tadqiqot natijalari……………………..54

3.1 Talabalarga dizaynni o'rgatishda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish……………………………………………………………..54-63

3.2 Talabalarga dizayn san'atini o'ratishning tajriba – sinov ishlari borishi va natijasi……………………………………………………………………….64-65
Umumiy xulosa……………………………………………………………...66-67
Foydalanilgan adabiyotlar ………………………………………………68-69
Ilovalar…………………………………………………………………70

**Kirish:**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:** Inson yer yuzida paydo bo'libdiki u yangilikga, go'zallikga intilib, kelgan. U har bir narsadan san'at asari yaratishi mumkin. Modomiki shunday ekan inson oddiy loy, tosh, yog'och, ipak, jun hatto qamishdan ham g'zallik yaratishga qodir. Bunday g'o'zallik asta sekin san'at darajasiga yetib keladi. Bu jarayon davomida san'atkor o'zining qalb quriga bag'ishlab yaratilayotgan asariga jon bag'ishlaydi. San'atning o'ziga yarasha turli xil soxa va yo'nalishlari mavjud. Kimdir uni g'o'zal tabiat desa, kimdir yaratilmagan asar deydi.

Dizayn – bu asli inglizcha deign so'zidan olingan bo'lib, loyixalash, chizish, o'ylab topish hamda loyixa, reja, rasm ma'nolarini bildiradi. Dizayn iborasi buyumlarni loyixalash bilan bog'liq bo'lgan yangi faoliyat turini bildiradi. XX – asrning boshlarida dizayn aloxida turi sifatida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Hozirgi kunda "Dizayn" jamiyatni murakkab yashash jarayoniga mos keluvchi buyumlar muhitining maqsadga muvofiq keladigan namunalarini yaratish bilan shug'ullanadi. Ba'zan dizayn deganda uning ayrim bir soxasi, masalan: san'at buyumlarining estetik xossalarini loyixalashgina tushuniladi. Lekin dizayn ishlab chiqarishning funksiya ko'rsatishi, iste'mol buyumlar muhitida odamlarning yashash bilan bog'liq bo'lgan ancha keng ijtimoiy- texnik hamda estetik muomalani hal etadi. Dizayn iborasi badiiy loyixalash faoliyatining natijasini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan: "buyumlar dizayni", " avtomobillar dizayni", " liboslar dizayni" va boshqalar.

Hozirgi kunda matbuot sahifalarida dizayn so'zini tez-tez uchratish mumkin. Arxitektura, kiyim-kechak, radio-televizorlar, avtamobillar haqida gapirganda ham ularning dizayniga baho beriladigan bo'ldi. Dizayn nima? Uning lug'aviy ma'nosi qanday? Bu savolga Italyan arxitektori va dizayneri Djio Ponti dizaynning maqsadi-

go’zal shakllar, narsalar dunyosini yaratishdan iborat bo’lib, ular svilizatsiyamizning
chinakkam xarakterini ochib berishi lozim, deb xisoblaydi. Demak dizayner birinchi navbatda kuchli fantaziyali rassom, keng qamrovli, lirik tabiatli inson, yuqori malakali injener, texnolog, konstruktor bo’lmog’i lozim. Dizayn ishlab chiqarishining hamma soxalarida, jumladan, mashinasozlik, mebel, xalq xo’jalik buyumlarini ishlab chiqarish, tikuv bichuv ishlarida keng qo’llaniladi. Uning zimmasiga funksional vazifasini inobatga olgan holda o’sha buyumning go’zal, ixcham,xizmat uchun qulay va arzon bo’lishini ta’minlash yuklangan. Dizayn bilan kimlar shug’ullanadi, degan savol tug’iladi. Darhaqiqat, hanuzgacha dizayn bilan ko’proq rassom va arxitektorlar mashg’ul bo’lganlar. Jumladan, mashhur dizayner V. Tatlin rangtasvir rassom, arxitektor, italyan dizayneri Djio Ponti arxitektor bo’lgan. Rassom va arxitektorlar hamma soxada dizayner bo’lib ishlay oladilar. Yaqin yillar ichida har bir soxaning dizaynerlari alohida o’rin egallay boshlashdi.
**Muammoning o’rganilganlik darajasi :** O’rta Osiyoda amaliy san’at mutaxasisligini shakllantirish uchun talabalarning diqqat-e’tiborini, brinchi navbatda xalq amaliy- badiiy san’atini o’rgatishga qaratmog’imiz lozim. O’rta Osiyo xalqlari boy ma’daniy, ma’naviy o’tmishga ega bo’lib, asrlar davomida mavjud tabiiy xom ashyolarni inobatga olgan holda ma’naviy boy, funksiya jixatidan qulay, tantanavor, ko’rkam muhit yaratish yo’lida tinimsiz izlanishgan. X asrda yashab ijod etgan Sharq olimi Abu Nasr Forobiyning kasb – hunar egallashga bag’ishlagan quyidagi fikrini eslab o’tish o’rinlidir: “ Kimki eng go’zal va foydali narsani kashf etish fazilatiga ega bo’lsa, kashf etgan narsaning chindan ham o’zining istagi va boshqa birovning istagiga muvofiq bo’lsa yoki uni boshqalarning hohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf qilgan yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan xayrli va foydalidir”. Mazkur fikr har bir manba hunarmand yuragidan joy olgan. Albatta hunarmandlar yig’ilishib bir shaharni tashkil qilishgan va shaharlarda hunarmandlar uyushmasi, katta ustaxonalarning mavjudligi, ularning o’ziga xos qonun – qoida risolalariga ega bo’lishi hunarmandlar mahsulotining san’at darajasiga yetkazilishiga sabab bo’lgan. .

Shunday ekan, pedagogik amaliyotda xonadagidagi shart - sharoytlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida ham, o'gituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalana olishi lozim. O'qituvchi o'qitish metodikasini ish jarayonida o'z-o'zidan amalayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o'tkazishni, ko'p adabiyotlar o'qishi, ilg'or tajribalarni o'rganishi hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishi asosida paydo bo'ladi. XVII-XIX asrlarda o'qitish metodlarini takomilashtirishda chet el pedagoglaridan Jonn Lokk, Jan Jak Russo, Yoganni Inrix Pestlocci, Petr Shmidt, A. Sapojnikov, G, Gippiyus, N. Kramskoilar katta hissa qo'shgan bo'lsalar ajabmas. Shularni ham xisobga olib hali ishlanishi lozim bo'lgan amaliy san'atining dizayn yo'nalishi bo'yicha Samarqand amaliy san'at maktabini o'rganishni mavzu qilib oldim. U quyidagicha nomlanadi.

**Maqsadi**: Kasb- hunar kollejlari talabalarga dizaynni o'qitishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish.

**Magistirlik dissertatsiyasining vazifasi :** Talabalarga dizaynni o'rgatishda o'zbek xalq amaliy san'ati vositalaridan foydalanishga tarixni o'rganish.

- Talabalarga zamonaviy dizaynerlik faoliyatining ko'rinishlarini pedagogik tomonlarini o'rgatish.
- Talabalarga dizaynni o'rgatishda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanishni ko'rsatish.
- Talabalarga dizaynni o'rgatishda Samarqand an'analaridan foydalanish.
- Talabalarning dizaynerlik faoliyatida hajmli tasvirlarning kompozitsiyasi bilan tanishish.
- Talabalarga dizaynni o'rgatishdagi dars ishlanmalarini tayyorlash.

**Tadqiqot predmeti** : Talabalarga dizaynni o'rgatishda Samarqand kasb hunar kollejlari.

**Tadqiqot obyekti :** Kasb hunar kolleji talabalarida dizaynni o'rganish darslari jarayoni.

**Tadqiqot metodi :** Nazariy va amaliy adabiyotlarni o'rganish, kuzatish, suxbat, bolalarni ijodini o'rganish, kasb hunar –kollejlari hujjatlarini tahlil qilish, tajriba-sinov, ma'lumotlar tahlili.

**Tadqiqot metadalogiyasi :** O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari va ma’ruzalarida bayon qilingan ta’limni isloh qilish, o’quvchilarda ma’naviy-ahloqiy madaniyatni shakllantirishga oid yondashuvlar, sharq mutaffakkirlarining asarlarida ma’naviy-ahloqiy tushunchalar haqidagi qarashlar, ta’lim jarayonini takomillashtirishga yo’naltirilgan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar.

**Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:**

1. Talabalarga dizayn soxasi orqali xalq amaliy san’ati bilan tanishtirish tarixi.
2. Talabalarni xalq amaliy san’atini namunalaridan foydalanish va hayotda tutgan o’rnini belgilangani.
3. Talabalrning xalq amliy san’ati ustalarining ijodini qay darajada o’rganayotganligini aniqlaganligi.
4. Talabalarni xalq amaliy san’atini o’rganganganligi sinovi va darajasi.

**Tadqiqotning amaliy ahamyati:** Bu, mutaxasisning ma’naviy dunyoqrashini o’stiradi, uni O’rta Osiyo xalqlari madaniy o’tmishidan xabardor qiladi. Mahalliy materiallar xususiyatini bilishga, buyumlarning shaklini, naqshlarning tuzilishi va ma’nolarini, ranglarning ishlatilish joyini o’rganishga zamin yaratadi.

O’rta Osiyoda 130 dan ziyod nom bilan ataluvchi hunar bo’lganligi ham hunarmandchilikning qay darajada rivojlanganligi bilan tanishtiradi.

**Tadqiqot natijasi:** Tadqotimizda olib borilayotgan ishlar ko’lamini yoritishda biz o’tmishga nazar solib va uni bugungi kun ruhida bajarishga qaratilgan. Hozirda ma’lumki yosh avlodni zamonaviy tarzda ishlab chiqilgan buyumlar, o’yinchoqlarning hamda kiyim kechaklar diqqatini tortadi. Shunday ekan ularga o’zimizning milliy naqsh, o’ymakorlik, kandakorlik, misgarlik va hokazo kabi yo’nalishlarni o’rganib yangicha uslublar yaratishga o’rgatish.

**Ishning sinovdan o'tishi :** Maskur tadqiqot ishi A. Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti "Amaliy san'at va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi yig'ilishlarida, Magistrlarning ilmiy semenarlarida muhokama qilingan. Tadqiqot ishi kafedrada bo'lib o'tadigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar shaklida hamda maqolasida ko'rstib o'tilgan.

**Disertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi:** Disertatsiya Kirish qismi: 2-bob, olti band, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati , ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 70-80 betni tashkil etadi.

## I-BOB Talabalarga dizaynni o’rgatishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalardan foydalanishning pedagogik ahamyati.

### 1.1 Talabalarga dizaynni o’qitishda o’zbek xalq amaliy san’ati vositalaridan foydalanishning tarixiy taraqqiyoti.

Mavjud ta`lim–tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko`tarish milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini, barkamol avlodni voyaga etkazish to`g`risidagi farmon va «Ta`lim to`g`risida» gi qonun va kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dasturning negizini tashkil qiladi. Amaliy san`at fani tasviriy san`at, chizmachilik va amaliy san`at o`qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadim zamonlardan yurtimizda xalq amaliy san`ati, hunarmandchilik rivojlanib kelgan. Bu boyis me`rosni rivojlantirishda xalq ustalari, naqqoshlar, me`morlar, kulollar, toshtaroshlar va boshqa san`at ustalari ijod qilib kelishgan. Ular qoldirgan me`rosni o`rganish va uni rivojlantirishda amaliy san`at fanining o`rni kattadir.

O`lkamizning shahar va qishloqlari turmush hayotimizni yanada chiroyli va qulay buyumlari, yashash sharoitlarni yaratishimiz uchun hamda jahon andozalari darajasida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishimizda fanning o`z o`rni bor.

Amaliy san`at fanini o`qitishdan maqsad, yaratilayotgan san`at asarlaridan tortib qurilayotgan ko`cha, xiyobon, binolarni badiiy bezash uslublarini yosh avlodga etkazish va ma`naviy yuksak badiiy did egasi qilib tarbiyalash maqsad va vazifasi deb biladi. O’rta Osiyoda amaliy san’at mutaxasisligini shakllantirish uchun talabalarning diqqat-e’tiborini, birinchi navbatda xalq amaliy- badiiy san’atini o’rgatishga qaratmog’imiz lozim. O’rta Osiyo xalqlari boy ma’daniy,

ma’naviy o’tmishga ega bo’lib, asrlar davomida mavjud tabiiy xom ashyolarni inobtga olgan holda ma’naviy boy, funksiya jixatidan qulay, tantanavor, ko’rkam muhit yaratish yo’lida tinimsiz izlanishgan.

X asrda yashab ijod etgan Sharq olimi Abu Nasr Forobiyning kasb – hunar egallashga bag’ishlagan quyidagi fikrini eslab o’tish o’rinlidir: “ Kimki eng go’zal va foydali narsani kashf etish fazilatiga ega bo’lsa, kashf etgan narsaning chindan ham o’zining istagi va boshqa birovning istagiga muvofiq bo’lsa yoki uni boshqalarning hohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan xayrli va foydalidir”. Mazkur fikr har bir hunarmand yuragidan joy olgan. Shaharlarda hunarmandlar uyushmasi, katta ustaxonalarning mavjudligi, ularning o’ziga xos qonun – qoida risolalariga ega bo’lishi hunarmandlar mahsulotining san’at darajasiga yetkazilishiga sabab bo’lgan.

Markaziy Osiyoda, jumladan, Tohariston (Baqtriya), Xuroson (Parffiya) va Sug’dda antik va ilk o’rta asrlarda haykaltaroshlik san’ati keng rivojlangan. Haykaltaroshlik san’ati namunalari saroy, ehrom va boy xonadonlar uylari interyerlarida keng qo’lanilgan. Haykaltaroshlik san’ati, asosan ikki yo’nalishda shakllangan. Bu hajmli va barelef – devor, yuzasidan yarim bo’rtib chiqqan hajmda ishlangan.

Haykallar ko’proq gildan, ganch, tosh va yog’ochdan ishangan. Gildan yasalgan haykallar qizg’ish rangga bo’yalgan. Bunga Xolchayon saroyi haykallari misol bo’ladi. Haykallar orqali shoh, shon shuhratini, davlat kuch qudratini, dushman ustidan g’alabani va muruvvatni hamda xalqning diniy e’tiqodiga tegishli ilohlar siymosini ifodalashgan. G. A. Pugachenkovaning “Xolchayon saroyi haykallari mag’zidan ta’sirchan realizm yotadi, u Kushon uyining Osiyo tarixida sahnaga chiqqan, ya’ni mashhur vakillarining harakterini va aniq siymolarini ifodalaydi” , - deb yozadi. A. I. Voshinina esa Xolchayon haykallarida o’sha davr odamlari portreti realistik tasvirlangan, deb fikr bildiradi. Ikkala muallifning bildirgan fikrlari bir biriga zid emas, aksincha bir-birini to’ldiradi. Chunki o’sha davr odamlari portretini real ifodalay olgan haykaltarosh konkret- aniq shaxslar haykalini ishlashiga shubha qilish noo’rin, albatta.

Barelyef – yarim bo’rtib chiqqan holda ishlangan haykallar, Xolchayon saroyi mavqeyini, uning funksiyasini, shohlar sulolasini va ularning shon – shuhratini bildiradi. Barelefning xona devori yuqori qismida gorizontal bo’linma sifatida joylanishi interyerning tantanavor, kompozitsiya jihatidan go’zalligini, devor yuzasining proportsiya jihatidan mutanosibligini, uning interyer qismlari bilan hamohang bo’linishini hamda xonaning turli burchaklarida barelef kompozitsiyasining yaxlit ko’rinishini ta’minlaydi.

Ayrim obidasiga tegishli barelef - o’yma haykallar balandligi yarim metrli uzun taxta- sanglarda bo’lishi, ularning xona devoir yuqori qismida, ya’ni shift osti bo’ylab sharafa o’rniga joylashtirilganligidan dalolat beradi. Olimlarning fikricha, Ayritom haykallari Budda marosimari bilan bog’liq eposlarga bag’ishlangan. G. A. Pugachenkova musiqa chalayotgan ayollarrniing yuzlarida ma’yuslik, jiddiylik sababli, ularning Budda Gautamaning Shavkatli o’limini ifodalagan epik sarguzashtlari bilan bog’laydi. Darhaqiqat, Buddaning Shavkatli o’limiga bag’ishlangan epik dostonlarda dafn marosimi bilan bog’liq raqsga tushish, musiqa chalish va osmondan yomg’ir kabi gullarning sochilishi kabi amalu dasturlar o’z aksini topgan. G. A. Pugachenkovaning fikricha, mazkur haykallar ibodatxonaning ayvon shaklidagi kirish qismi yoki Budda haykali o’rnatilgan xona oldidagi dahlizda joylashtirilgan. Mazkur sharafa haykallar asosiy xonadagi Budda haykali bilan nafaqat mavzu, balki badiiy kompozitsiya jihatidan ham bog’langan. Xonaning nim qorong’u qismida, shift ostida katta bargli gullar orasida musiqa chalayotgan qizlar siymosinng gavdalanishi har qanday kishini hayratga soladi. Budda qudratining ulug’vorligi va u bilan bog’liq voqealarning jozibadorligini ta’minlaydi.

Diniy imoratlarning tarhi o’zaro monand bo’lishiga qaramasdan, ulardagi haykallar o’ziga xos turlarga ega. Jumladan, Parfiyada haykallarda qizil rang, undagi chuqurchalar uchun ko’k, sariq ranglar bilan birga qora rang ko’p ishlatilgan. Xorazm va Sug’dda haykallar plastikasi nisbattan ixchamroq bo’lib ular maxsus tokchalarga o’rnatigan. Ularning siymosi ibidatxonaning qaysi dinga mansubligidan dalolat beradi.

Budda ibodatxonalarida haykallar keng qo'lanilgan. Ular obida interyerining vazifasini aniq belgilab bergan. Buddaning ko'proq o'tirgan holati ifodalangan. Budda haykali ibodatxona interyerida, devor tokchalarida va maxsus o'rnatilgan xonada shohsupaga o'rnatilgan holda ham uchraydi. Ajinatepa ibodatxonasi fikrimiz dalili bo'la oladi. Xona o'rtasida o'rnatilgan Budda haykali devor tokchalaridagi ancha katta hajmda ishlangan. Xona devorlari tokchalarida o'rnatilgan haykallar kishini biridan ikkinchisiga o'tib, sig'inishga undaydi. Xona o'rtasidagi haykal esa xona kompozitsiyasi bilan badiiy jihatdan bog'lanib unga yaxlitlik bag'ishlaydi. Xona mavqeining balandligi, ya'ni ibodatxona kompleksida uning asosiy sig'inish xonasi ekanligini ta'minlaydi. Shu o'rinda yana bir dalilga e'tiborimizni qaratamiz. Budda ibodatxonalari devorlariga buddaviylikka homiylik shohlar tasviri ishlanganidek, ularning haykallari ham o'rnatilgan. Buning uchun maxsus xona ham ajratilgan. Shohlar haykali o'rnatilgan xona Dalvarzintepadagi budda ibodatxonasida o'rnatilganligi sababli, bu xonani arxeolog olimlar "Shohlar zali" deb nomlashgan.

Sug'dda ilk o'rta asrlarda yog'och tasvirlar o'yish keng joriy qilingan. Bunga Panjiketdagi yog'och badiiy tasvirlar guvohlik beradi. Bu yerda yog'ochdan ikki yo'nalishda badiiy asar yaratilgan. Birinchi – ornamental, ya'ni taxta yoki yog'och bareleyf yuzasida syujetli tasvir, ifkuduna yoki naqsh o'yish, ikkinchi- hajmli tasvir, ya'ni haykal yasash.

Birinchi turdagi tasvir ko'proq xona shifti yoki shift ostida devor bo'ylab yo'naltirilgan taxtalarda va kundalarda ishlangan. Ularda tasvir bir yoki ikki qatorda ishlangan bo'lishi mumkin. Yuqoridagi qator keng bo'lgan va ravoqlarga bo'lingan. Ravoqlar ichida kamon otayotga qahramon, taxtda o'tirgan shoh va ot aravada ketayotgan pahlavon tasvirlangan. Ravoqlar oralig'ida gul tasviri ishlangan, pastki qatorda qanotli sherlarning qadam tashlab bir tomonga qarab borayotgani tasvirlangan. Shuningdek, kunda, to'g'ri to'rtburchak yuzali taxtachalarda ham, romb, doira ichiga olingan " Otliq ovchi", "Qanotli sher", "Sher ustida borayotgan ayol" kabi syujetlar ifodalangan. Shunga o'xshash tasvirlar Jumalaktepa saroyi yog'och qisimlarida mavjud. Unda ravoqlar ichida odamlar

tasviri beligacha ishlangan. Ularda zodagonlar va qahramonlar siymosi ifodalangan.

Mazkur bareleyfli yog'och qator, ko'proq sharafa vazifasini bajargan. Lekin ulardagi haykallar o'sha xonadan egasi mavqeyini yoki saroy hokimi shuhratini aks ettirgan. O'sha davr xalq dostonlari va ular bilan bog'liq voqealarni ifodalagan.

Yog'ochdan ishlangan hajmli tasvir Panjiketdan ham topilgan.Ular ayol va askar qomatini ifodalaydi. Ayol haykali nisbattan yaxshiroq saqlangan. Uning Ko'ylagi xarir matodan tikilganligi yaqqol tasvirlangan. Ayol qomati juda go'zal propotsiyaga ega. Uning bir qo'li belida, ikkinchisi saqlqnmagan, lekin yuqoriga ko'tarilganligi seziladi. A. M. Beleniskiy mazkur yog'och haykalda nozik qomat raqqosa qiz siymosi tasvirlangan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Kariatida tasviri Biya- Nayman go'r qutilari devorida, Varaxsha, Panjiket devoriy suratlari ifodalangan. Suratlarda karistidalar imoratning biron – bir konstruktiv qismini ko'tarib turgani tasvirlangan. Kariatidalarning ustun vazifasini bajarganligi Afina akropolodagi Erexteyron saroyidan ma'lum. Unda ayollar qomati katta katta toshlardan yo'nilgan. Ular o'zining hajmi va materiali evaziga konstruktiv element bo'la oladi. Panjiketdagi kariatidalarni A. M. Belenskiy, B. I. Marshaklar Sug'dda badavlat xonadonlar uylarining asosiy xonasi devorining ustki qismi, ya'ni tasviri I shlangan gorizontal bo'linmadan so'ng yuqori joylashtirilgan, deb yozishadi.

Dizayn XX – badiiy madaniyatida favqulotda paydo bo'ldi. Chet elda XIX va XX-asrlar mobaynida shakllanib u sanoat to'lqinida, keyinchalik ilmiy- texnik inqilobda bizning hayotimizda tez suratlar bilan yorib kirdi va loyihalash – badiiy, faoliyatida ta'sirli va eng keng tarqalgan turlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda qaysi bir inson faoliyati doirasida bo'lmasin dizayner mehnatisiz tassavvur qilish qiyin. Dizayn inson ishini va hayotini yengillashtirdi, ko'p jihatdan, uning yashash uslubini belgilaydi. U xuddi hech qanaqa boshqa loyihalash badiiy faoliyatini turini, inson uchun uning doirasida har jihatdan yuqori darajada maxsus ilmiy tadqiqot asosida, inson hayoti faoliyatida eng qulay sharoitni yaratishga intilib, uning zamonaviy texnikada o'zaro ta'sirini o'rganadi. Jamiyatda qanday voqea

sodir bo'lmasin yangi musiqaga qiziqish, uyda yoplgan noni eski uslubda yopilishiga qiziqish, salomatlikka yuqori darajada e'tibor berish hammasi dizaynda o'z aksini topadi, ya'ni o'z navbatida kelgusida yangi yo'nalishda namoyon bo'ladi. Badiiy texnik rivojini zamon talabiga mos bo'lishini shu dizayn ishtirokida, shakl shamoili yangilanib turiladi. Dizayn ilg'or texnalogiyani va materiallarni aniqlashda, eng zamonaviy texnik yutuqlarni va modalar tasirini, ishlab chiqarilgan buyumlarning yuqori istemol xususiyatini, ayni paytda insonlar didini turli tumanligini xisobga olishda farqlanadi va inson didining yuksalishida eng zarur omillar sifatida namoyon bo'ladi.

"Dizayn" tushunchasi bugun eng taraqqiyparvar ko'rinishda va eng yuqori zamonaviy texnik yutuqlari bilan bog'lanmoqda. Dizayn asarlari nafaqat o'z davri uchun jaranglidir, balki ma'lum qismi zamonaviylikda ertangi yoki kelgusi yutuqlar badiatining taraqqiyoti uchun u, yarim qadam oldindadur. Dizaynerlarning izlanishlari badiiy shakl shamoillarning nafis ko'rinishlarida biz kelajakka, shu bilan birga rassom futuristlar fantaziyasi, tasavvuriga emas, balki aniq real mavjud sanoat namunalariga nazar tashlashimiz mumkin. Yirik tashkilotlar istemolchi talabi jarayonini puxta o'rganib, kelajakni bashorat qiladilar, kelajak andozasini yartib, endi kelgusida xaridorlar uchun, ularning turli tuman yuqori sifat badiiy talabi va nozik didlari uchun ishlaydilar. Zamonaviy beletristika, o'qilishi oson bo'gan asrlar, dizayn rivojini tahlil qilishga va uning yutuqlarini tafsiflashga intilib, har doim ham ulgurmaydi. Shuning uchun bugun dizayn haqidagi adabiyotlar tanqisligi ma'lum darajada sezilmoqda, uning tarixi va ayniqsa nazaryasiga, So'nggi yillarda ba'zi bir o'zgarishlar sodir bo'ldi, qachon chet elda yuz yillikda III-ming yillik arafasida ko'pgina mualliflar tomonidan san'at memorlik va ayniqsa dizayn sohasi rivojiga ma'lum xulosaga kelishga urinishlar bo'lgan edi. Chet elda XX-asr dizayn rivojini ifodalovchi qator keng hajmli yorqin obrazli kitob va kataloglar paydo bo'ldi. Dizayn rivojiga bizning mamlakatimizda ya'ni O'zbekistonda begona sotsial ko'rinishda, kapitalistik raqobat samarasi sifatida hech qachon asosiy e'tibor qaratilmagan. Yaqin kunlargacha bizda maktabda dizayn o'qitilmagan va fan sohasi sifatida, o'quv

dasturi sifatida, institutlarda kiritilmagan. Bir necha maxsus dizaynerlar tayyorlaydigan badiiy institutlarni xisobga olmaganda. Shuning uchun bugungi kunda o'quv metodik xususidagi adabiyotlar tanqisligi jiddiy sezilmoqda, unda dizaynning asosiy tushunchasi yoritilmoqda, uning tarixi, o'ziga xos xususiyati va dizynerlik loyihalash, badiiy faoliyatining asosiy uslublari, zamonaviy loyihalash badiiy madaniyatida yaxlit dizayn roli ochib berilmoqda. Turli nashrlarda chop etilgan mazkur risolalarda dizaynning faqat alohida nuqtai nazarlariga to'xtalmoqda, ulardan ko'p qismi ilmiy xususiyatda hisobga olinib doim ham o'quv maqsadida foydalanish mumkin bo'lmaydi. Bu masala ayniqsa bugun ko'pgina Toshkentda tashkil etilgan dizaynerlik sohasidagi o'quv maskanlarida kuchaytirildi.

Respublikamizning Toshkent, Xiva, Samarqand, Buxoro singari shaharlarida uymakorlik va naqqoshlik san'ati ayniqsa mashhurdir. Xalq amaliy san'ati ustalari madaniyat qasrlari, istirohat koshonalarini bezashda jonbozlik ko'rsatayotganligi diqqatga sazovor. Bu san'atning Toshkent maktabida qator xalq ustalari ijod etmoqdalar. Bular orsida ayniqsa, naqqosh Jalil Hakimov, usta ganchkor, xalq rassomi Mahmud Usmonov, o'ymakor Ortiq Fayzullayevlar ijodi el tiliga tushgan. Ularning asarlarida tinchlik, do'stlik, davrimiz ruhi o'z ifodasini topgan. Qadimiy san'at turlaridan biri bo'lgan o'ymakorlikda ajoyib yutuqlarni qo'lga kiritayotgan ijodkorlardan biri Ortiq Fayzullayevdir.

"Dizayn" mutaxasisligi badiiy bilim yurtlariga asosiy fanlar qatorida kiritilmoqda, badiiy va umumiy ta'lim maktablarida dizayn asoslari o'qitilmoqda. Ushbu nashr

dizayn bo'yicha maxsus fan xisoblanadi va seriyadagi kursga kiritilgan, asosan 2F02 mutaxasisligi studentlariga qaratilgan " Dizayn memorlik doirasida" mavjud andoza asosida 3yil o'qitiladi. Shuning uchun materiallar qisqa ifoda etiladi, katta son normalari va oylari xisobga olib borilgan holda etarli darajada o'quvchini san'at va memorlik tarixi bo'yicha badiiy texnalogiyaga tayyorlangan holda, darslik oxirida har bo'lim bo'yicha adabiyotlar ro'yxati joylashtiriladi, unda student materiallarni mustaqil o'rganishi chog'ida foydalanishi mumkin.

Darslikdan shuningdek o'rta va oily o'quv maskanlari studentlari, turli badiiy va arxitektura, jumladan dizayner mutaxasisliklariga tayyorlanadiganlar foydalanishi mumkin, butun tasvirlarni umumlashtirib, dizayn haqidagi suratni yaxlit, noyob ko'rinishdagi kabi zamonaviy loyihalash badiiy madaniyatini shuningdek loyihalash badiiy faoliyatini yaratilishi davridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan bu ko'rinishini o'ziga xos zususiyatini namoyon etish masalasi qo'yilgan.

"Dizayn –bu buyumlarni ishlab chiqarish jarayonini, inson muammosini oqilona va ijodiy hal qilish, deb yozadi Brayen Xorrigan.

"Dizayn tushunchasi" o'zining tarixida "Dizayn" so'zi italyancha designo so'zidan olingan. Renesans davrida loyiha, surat shuningdek asosiy ish g'oyasida yotganligini anglatgan. Keyinchalik XVI-asrda Anglyada designo tushunchasi paydo bo'ldi, bizning kunimizga qadar etib keldi va rus tilida chizma, bezak, shuningdek loyihalash va yaratish ma'nosini anglatadi. Ancha tor kasbiy tushunchada dizayn loyihalash badiiy faoliyatida inson uchun har jihatdan qulay bo'lgan buyumlar doirasini turar joy to'plamlari, sotsial madaniy, sanoat tarmog'idagi, yuqori istemoldagi va estetik sifatdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni anglatgan. Dizayn bir necha usullar faoliyatini kesib o'tib yuzaga kelgan. Badiiy loyihalash dasturi, ommaviy sanoat, muhandislik loyihalari va fani. Bugun dizayn bu loyihalash badiiy faoliyatida majmuaviy o'zaro mustaqil fan sohasi, tabiiy ilmiy, texnik ijtimoiy
bilimlarni birlashtirib, muxandislik va badiiy fikrlash, sanoat asosida buyumlar dunyosini haddan tashqari keng muloqot chegarasida uni inson bilan hammasidan istesnosiz hayot faoliyati doirasi yo'nalishini shakllantirish. Dizaynning markaziy muammosi madaniy va antropoga yunonch odamga aloqador ekanligini bildiruvchi yasama so'z mos buyumlar olamini yaratish hisoblanadi, estetik baholangan garmonik kabi yaxlit. Bu yerda dizayn uchun alohida muhimi bu muhandislik texnik va tabiiy fanlarni o'rganish qatorida ijtimoiy fanlar falsafa, madaniyatshunoslik, sotsialogiya, semantika kasallik alomatlari haqidagi fan va boshqalardan foydalanishdir. Hamma bu buyumlar olamida loyihalash badiiy

modellashtirish hujjatini o'ziga xos qiyofali badiiy shaklni fikrlashga tayangan holda uni yaxlitlikga keltiradi.

Dizayn kasbi kabi taxminan 100 yildan beri mavjud. Uning hisobi XV-asr minyatura va kitobot san'ati, naqqoshlik O'zbekistondan boshlanib XIX-asr oxiri "Hunarmandchilikning san'at bilan aloqasi memoriy koshinkorlik, o'ymakorlik, kandakorlik xalq hunarmandchiligi"degan mashhur harakat tomonidan qisman olib borilmoqda, uning yo'lboshvhisi mashhur ustalar, badiiy buyumlar ijodchisi xisoblanadi. Xuddi shu vaqtda shakllangan siyosiy vaziyat nazariy va ijodiy dizayn qonuni maktablarida ta'sir etib va so'nggi yillar memorchiligida ancha yo'naltirilgan. Ba'zan dizayn kasbi vujudga kelishini XX-asr boshlari bilan bog'laydilar, unda rassomlar qator sanoat sohasida yetakchi o'rinni egallaganlar va korxona firma uslubini shakllantirish imkoniyatini olib, siyosatga ta'sir etib, firma tomonidan chiqarilayotgan mahsulotni yuzaga keltirdilar. Misol uchun nemis elektor texnika korxonasini "AEG" firma uslubini va Amerika avtomobil firmasi "Ford motors" ni keltiramiz. Shunday fikrlar mavjud, ya'ni dizayn haqida o'zaro kelishib xuddi kasb kabi gapirish mumkin qachon? Qachonki maktablarda o'qitish uslubi shakllangandagina, dizayn darsi metodik qo'llanmasi tuzilsa va birinchi diplomli mutaxasisalar dizayn bo'yicha paydo bo'lsa. Naqqoshlik amaliy-tasviriy san'at turlarida biri bo'lib, tabiat manzarasini ma'lum unsurlar vositasida o'ziga xos yo'sinda ifodalovchi bir rangli tasvirki, bu tasvirda unsurlarning ma'lum bir sathda o'zaro uyg'unligi kishi diqqatini tortadi. Naqshlardagi unsur va yo'sinlar o'zining ma'lum bir buyumdan boshqa buyumga ko'chib yuradi. Bir xil naqshu nigorlar, naqsglangan uy jihozlarida, ro'zg'or ashyolarida, devor va shiftga ishlangan keng hajmdagi bezaklarda va boshqa asbob anjomlarda takrorlanishi mumkin. Har bir unsur, har bir yo'sin turli tarixiy bosqichlar davomida o'zining tabiiyligini yo'qotmagan, qaysi bir tasvirni olmaylik uning zamirida ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. Naqqoshlar g'oyat murakkab naqshu nigorlarni bunyod etar ekanlar, ularda yaxshi tilaklarni aks ettirganlar. Xususan, naqshdagi ranglarning o'ziga xos ma'nolari bo'lgan. Masaln: gulsafsar, osoyishtalik va uzoq umrlik timsoli, to'lqinsimon gul soyasi, boylik va farovonlik timsoli, navda vayaproqlar

esa to’kinchilik hamda tabiatning bahor chog’ida uyg’onishni anglatgan. Bezakli naqshu nigorlar musavvirlarning ona tabiatga chuqur muhabbatini ifoda etib, ularning jo’shqin hayot bilan dim hamnafas ekanligini bildirgan. Gullar va naqshlar borasida xalq tasavvuri tilsim, sehr-jodu aqidalar, urf-odatlar va pand nasihatlar bilan qorishib ketgan. Masalan: oq rang baxt va omadni bildirgan, zangori rang oily e’tiqodni, qizil rang xushchaqchqalikni, shodlikni bildirgan.

Naqqoshlik kishida yuksak badiiy didni yuzga keltiradi. Naqsh ishlangan memorlik inshootlari, turar joy binolari, doimo estetik zavq, ruhlanish manbai bo’lib kelgan. Aniq ma’lumotlarga suyanib shuni aytish mumkinki, naqshlangan uylarda kishi xotirjam, ruhiy osoyishtalik bilan yashab, uzoq umr ko’radi. Ma’naviy dunyomizni yanada boyitib, oliy barkamollikga oib chiqadi. Shuning uchun ham madaniy merosimizni o’rganish, uning yaratilish tarixini bilish, yangi –yangi imkoniyatlarni topib, uni boyib borish ayniqsa hozirgi davrda katta ahamyatga ega. Buning uchu esa o’zbek xalqi o’z tarixi davomida nimaiki yaratgan ekan, ularni chuqur o’rganishi zarur. Qo’qon shahri o’zining boy madaniy merosi bilan mashhur. 1894-yil shved olimi F.R. Martin tomonidan qo’qon shahridan olib ketilgan ikki nafis o’ymakor eshikni hali-haligacha NyuYork metropoliteni muzeyida maroq bilan tomosha qilishadi, qo’qondagi memorlik obidalari asosan XVIII-XX –asrlarda qurilgan. Hanuzgacha yaxshi saqlangan Xudoyorxon o’rdasi, mashhur Jome masjidi va minorasi, Kamol qori madrasasi, Miyon Hazrat madrasasi shular jumlasidandir. Bu 20- yillar bizning 100 yilligimizdir, unda birinchi dizayn maktablari tashkil etildi. Germaniyada Vauxaus va Sovet Rossiyasida VXUTEMAS. Shunday nuqtai nazarlar mavjud, dizayn paydi bo’lishini butun jahon krizisi davri 1929-yil bilan bog’laydilar. Dastavval Amerika finomeni singari, Haqiqatdan 1929-yil krizisga qadar yevropa dizaynini xaqiqiy komersiya kuchida tashkil topa boshladi, sekin asta egallab, to’la ma’noda bu so’zni ommaviy xususiyatda “sanoat dizyni” kasbi yuzaga keldi.

O’zbekistonda “dizayn” so’zi ishlatilmagan “nafis san’at” so’zi bo’lgan. 100 yillik boshlarida arxitektura shakllanib, Amerika va qator yevropa mamlakatlarida yangi uslubiy yo’nalaish “funksionalizm” o’z qatorida nazariy

uskuna bo'lib qolgan. Dizaynni shaklantirish qoidalari rivoji uchun. Uning yo'lboshchilari badiiy shakllar go'zlligini ko'rib va uning funksional maqsadga muvofiqligini o'rib, dizaynning mashinada shkl hosil qilinishi manbaida turdilar. Ular orasida nomi mashhur bo'lgan

Luis Salliven- Chikago memorlik maktabi asoschilaridan biri, o'zining binolari bilan mashhur bo'lgan "mashina davr zamonida". Frank Lloyd Rayt amerika memorligi va dizayni otaxoni, Peter Berens- nemis memori va rassom, nomlari bilan dizayn rivojining butun davrini bog'laydilar va qisman "firma uslubini" paydo bo'lishini

ham, Mis van der Roe mashhur germaniya ishlab chiqarish uyushmasi Verkbund yo'lboshchilaridan biri va Germaniyadagi aql va idrokka asoslangan dizyn va memorchilik asoschilaridandir. Valter Groipus – "Vuxauz" asoschisi zamonaviy arxitektura va dizayn asosida butun jahonga mashhur bo'lgan , Gerit Tomas Ritveld-golland arxitektori, uning konseptual "qizil ko'k ranglar bilan jilo bergan kreslosi" zamonaviy dizaynning xaykaltaroshlik timsoliga aylandi. Chunki bu o'sha zamon kishilari ko'ziga yangicha shakl bo'lgan edi. Dizayn pionerlar orasida sanoatga kirib kelgan arxitektor va rassom modernistlar bo'lgan. Modern namoyondalarining o'tgan davr uslubiga taqlid qilishi joniga tegib boshi berk ko'chadan chiqish yo'llarini izladilar, elektrikani tan olmasdan, bezatishni keskin tanqid qildilar va oqilona sohada izlanish olib borib, o'ymakorlik va naqqoshlik geometrik shakl, badiyati chiroyli bunda asosiy diqqat boshlang'ich buyum g'ozalligiga qaratilib, uning badiiy uslubiga munosabatini aniqlashtiradilar. Bunday qarashlar badiiy va falsafiy sanoat shakllanishida o'ziga xos qadam bo'ldi. Ular orasida mashhur ustalardan Toshpo'lat Arsloqulov, Usta Shirin Abdullo Boltaev, Chingiz Axmarov uslubining paydo bo'lishi ularning nomi bilan bog'liq bo'lgan. Evropada Mixail Tonet va uning butun jahonga mashhur bo'lgan "venskiy stuli" , Charlz Makintosh shotland arxitektori, "Artnuvo" uslubi rahbari, u dizayn sohasida evropa moderni cho'qqisidan biri hisoblanadi, uning mebeli esa asr boshidan to shunga qadar ishlab chiqarilmoqda, Reymond Loui AQSH kasbiy dizayni asoschilaridan biri, ba'zan uni sanoat dizayni otaxoni deb ham ataydilar.

Kamillo Olivetti va Ervin va Artur Braunlar, ular nomi bilan dizayn tarixi butun uslubini bog'laydilar. Jovanni Ponti italyan arxitektori dizayn bo'yicha mashhur jurnal "Domus" saoschisi. Alvar Alto zamonaviy fin arxitektori va dizayn asoschisi. Shuningdek Rossiyada nomlari mashhur K. Malevich. A. Rodchenko, V. Tatlin, L. Lisitskiy va boshqalar rus dizayni manbaida turganlar. Bizning mamalaktimizda so'nggi vaqtlarga qadar "dizayn" tushunchasini nafis san'at asari, go'zal naqqosh ishi, chiroyli xontaxta, badiiy bezakli ustun, chiroyli o'ymakorli chovgun, go'zal kashtachi, mahir kulol, naqqosh kabilar bilan cheklangan. Dizayn tushunchasini xalqqa tushuntirish uni anglatish uchun quyidagi terminlardan foydalangan. "Badiiy asr" loyihalash jarayoni,"sanoat san'ti" , "texnik estetika" faoliyat doirasi. Mutaxasis dizaynerlar "Rassom konstruktor" dizayn institute etakchisi "Butunjaxon ilmiy tadqiqot institute texnik estetikasi" XX-asrning 60-80-yillarida esa eng ommabop dizayn bo'yicha mamlakat jurnali "Texnik estetika" kabi nomlangan. Dizayn badiiy-loyihalash faoliyatining boshqa turlaridan farqli o'laroqlik va qulaylik kabi shunday tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Sanoat ishlab chiqarish sharoitida seriyali chiqarilgan va uning uchun uncha qimmat bo'lmagan buyum paydo bo'lib, dizayn o'zining paydo bo'lishi paytidan asosan estetik va foyda ko'rish nuqtai nazaridan ommaviy xaridorlar talabi o'rtacha etarli bo'lishiga yo'naltirilgan. O'sha nima ommaviy sanoat ishlab chiqarishda dastlab etishmagan hissoblansa-bir necha marta chiqarilayotgan buyumning tashqi shakllari takrorlanishi-dizayn yordamida u o'zgarishi va obro'si bo'lishi lozim edi. O'sha nimani o'ziga ravo ko'rmagan xunarmand donabay maishiy narsalar tayyorlashda dizaynning kasbi mazmuni bo'ldi-buyum qism shakllarini izlanishda estetik did va undan foydalanishning eng qulay vaziyati mashinada ishlab chiqarish, o'zida ikki shunday muxim sifatni mujassamlashtirib, xuddi arzon buyumday va qismlarda o'ylangan uning shakllari, sanoat shakllanishida xunarmandchilik ishlab chiqarish bilan raqobatbardosh bo'la oldi. Islimiy naqshlardagi gullar qo'qon naqqoshligida me'yori bilan ajralib turadi. Naqsh san'ati qo'qondagi tarixiy me'morlik obidalari: masjidlar, madrasalar, xon o'rdasi binolarida o'z aksini -yu, dabdabasini, butun hashamatini namoyish qilgan.

Ayniqsa, Jome' masjidi  buning yorqin misoli bo'la oladi. Masjidning 2,5 ming kvadrat metr yuzaga ega bo'lgan naqshlangan shiftini yuzlarcha mahobatli, sarvdan yasalgan ustunlar ko'tarib turadi. Hamma naqshlar bir bo'lib bahor kayfiyatini beradi. Kishi beixtiyor lolazor, chamanga kelib qolgandek chuqur, to'yinib nafas oladi, binoning va ayvonning muhtashamligidan, osoyishta suronli jozibasidan hayratga tushadi. Masjid shiftining har bir bo'lagi o'zgacha bir uslubda bezatilgani uchun, har bir katak sehrli gilamlar singari yal-yal yonib turadi. Ranglarning sho'x jilvasidan mast bo'lgan yuzlab kabutarlar naqshni navro'z fasli bilan adashtiradi va ustunlar peshtoqiga uyalar qo'yadilar.Masjid shiftining markaziy kataklaridan birini ko'zdan kechiraylik. Bunda girih va islimiy uslubdagi naqshlardan keng foydalanilgan. Naqsh 10 qirrali yulduz asosida yaratilagan. Usta har bir bo'lak ichiga mos ravishda mutanosib islimiy naqshlar o'ylab topgan. Asosiy zamin uchun naqqosh shunday rangni tanlaganki, odatda quyosh charaqlab turganda yaylov, o't-o'lanlar shu rangda jilvalanadi. Ana shu rang aniq topilgan va haqiqatdan ham kishiga bahordan zavqlanish kayfiyatini beradi. Naqshning atrofiga murakkab girih tarzida uzluksiz naqsh tanlangan va naqshning mazmunini yanada boyigan. E'tibor qilsangiz, har bir shakl markazida xoch tasviri ishlatilganini ko'rasiz. Xoch shakli-juda chuqur mazmunga ega bo'lib uning  tarixi  diyorimizda budda dini xukmronlik qilgan eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi.Dizaynda xato ming nusxada takror ishlab chiqarilishi, u dizaynga juda qimmatga tushadi. Shuning uchun chiqarilgan u yoki bu modelni zamonaviy sanoatda ishlab chiqarish alohida mas'uliyatni talab etadi. Dizayn ilmiy va loyihalash uslubida maxsus bilim bilan qurollanadi. Ular orasida etakchisi qoidaga ko'ra ergonomika hisoblanadi-insonning o'ziga xos psixo-fizologik va funksionalligini o'rganadigan maxsus fan, inson yashashi uchun atrofida kerakli parametrlarni berib, xar jihatdan qulaylik yaratish. Dizaynda arzimas narsalar bo'lishi mumkin emas, agar bu insonga ta'lluqli bo'lsa. Xuddi zamonaviy avtomobilda xammasi, pastki boshqaruvida asbob-uskunalar joylashtirilishidan boshlab, rul va tepki shakllari, yo'lovchi kreslosi va eshik tutqichi yoki kuldoni bilan tugallanishi, maxsus o'rganish ob'ekti xisoblanadi, tajriba va ko'p martta

tekshiruvlar dizayner ish jarayonidir. Har bir ushbu qismlar nafaqat o’ziga o’zi foydalanishda estetika va qulay bo’lishi lozim, ular hammasi birgalikda yagona maqsadni-avtomobilning badiiy shaklini, qisman esa bu shakl orqali ushbu obraz va uning firmalari ishlab chiqaradigan imejini tashkil qilishi lozim. Oxirgisi alohida masalani tashkil qiladi kompaniyaning firma uslubini yaratishni, birlashgan yagona yorqin esda qolarli shakl hammasi, firma bilan bog’liq bo’lsa, uning an’anaviy o’ziga xos xususiyatidan boshlab-firmaning belgisi, harfli logotip, intererlari va xizmatchilar kiyimi va chiqarilayotgan mahsulotning tashqi ko’rinishi bilan tugallash.Loyihalash bilan birga dizaynerning zamonaviy ishlar tarkibiy qismi, buyumning iste’mol sifati va marketing tahlili xisoblanadi.Dizayner ishi kelajakdagi buyum loyihasi shakllari bilan tugallanmaydi. Buyumning yaqqol ko’zga tashlanib turishi-hali hammasi emas. yaxshi dizaynerlar ko’pincha o’zlarini firmadagi xaridorning xaqiqiy namoyondasi, firma ishlab chiqaruvchisi deb xisoblaydilar. Sotish bo’limi ko’proq sotishga intilishni, ishlab chiqarish bo’limi esa-tannarxini tushirishni muxokama qiladi. faqat dizaynerlar o’zlarini xaridor o’rniga qo’yib va shu xaqda o’ylaydilar tayyorlangan mol tushunarlimikan, undan foydalanish qulaymikan, uni parvarishi uchun nimalar talab etiladi. Uzoq vaqt texnik estetikada hammasi ichki xis va sog’lom fikrda asoslanadi, biroq buyum me’yorining murakkablashishi va xaridor talabining o’sishi jarayonida hammasi ancha shakllandi. Ko’pgina dizaynerlik bo’limlarida bugun mutaxassislar «inson omili» bo’yicha ishlamoqda-sanoat psixologiyasi, mol va xaridor o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni e’tibor bilan o’rganmoqdalar. Shunday yirik kompaniya «Maykrosoft Korporeyshn» kompyuter «sichqoni» yangi modelni ishlab chiqarishga kirishishdan oldin, muxandis psixolog va dizaynerlarni jalb qilgan holda keng izlanishlar olib bordi. O’lcham shakllarini klavishni sozlash va tashqi ko’rinishining o’nlab model variantlarini yaratdilar. Psixologlar modelni sinab ko’rdilar xaridorlarni nazorat gruppasini jalb qilgan xolda, undan keyin dizaynerlarga o’z tavsiyalarini berdilar. Kompaniya fikricha tikka yuqoriga ko’tarilish, u yarim yilda o’tgan yilga isbatan bir necha marta ko’proq mahsulot sotdi. Dizaynerlik loyixalash jarayoni kelajakdagi buyumning eski xomaki

nusxasidan boshlanadi. Keyin u taqqoslanadi va anchagina muvoffaqiyatliligi tanlab olinadi, keyinchalik u taqqoslash tahlilidan, shuningdek modeldan va namunali tajribadan o'tadi. Namunalarni tekshiruv jarayonida, iste'molchi talabi taxliliga tuzatishlar kiritiladi. Biroq tekshiruvlar bu bilan tugamaydi. Ular davom etadi va buyumning birinchi partiyasi to'pi chiqqandan keyin ham, undan keyin sanoat namunasi modernizatsiyasi olib boriladi. Bunday chuqur tahlil marketing bilan turli loyihalash bosqichida chambarchas bog'liq dizaynni boshqa loyihalash-badiiy faoliyatidan ajratib turadi.

Funksional va maqsadga muvofiq shakl buyumning tashqi ko'rinishi, uning estetik sifati bevosita uning raqobatbardoshligi bilan bog'liq. Ular qisman bozorda sotilishda hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Ma'lumki xoxlagan badiiy bezatish buyumni qo'shimcha qimmatlashuviga olib keladi, shunday ekan ma'lum darajadagi raqobatbardoshlikda u arzonlashadi. Agar bezak elementi mashina usulida minglab nusxada tayyorlansa o'zining noyobligini, shu bilan birga badiiy qiymatini yo'qotadi. Bu dizayn sanoati tarixida yaqqol namoyish etiladi. Mashinada ommaviy ishlab chiqarish dastlab ilgari xunarmandlar yaratgan buyum shaklidan nusxa ko'chirish orqali olib borildi. Biroq endi ishlab chiqarish texnologiyasi anchagina boshqacha bo'ldi: mashinada ishlab chiqarilgan buyum faqat xunarmand buyumni eslatadi, ammo yasama, yaxshi didni haqorotlovchi ko'rinishda bo'ladi. Dizaynerlar ilojsiz vaziyatning ham yo'lini topdilar, shunga o'xshash buyumni «bezatish» dastlabki rasmdagi naqsh kabi bezakli bo'lmadi, balki funksional zarur detali va geometrik shakllarigina bo'ldi. Mahsulot shakli dastlab alohida sinchiklab qayta ishlandi, dizaynerning eskiz va modelida ko'pgina jixatlari mayda chuydasigacha texnologik va funksional qurilmasini birga atroflicha o'ylab chiqildi. Shakllar go'zalligini uning tektonik va funksional o'ziga xosligida ko'rdilar.Funksionallik va maqsadga muvofiqlik-dizayn falsafasida asosiy nuqtai nazardan biri-kamroq harajatda ko'proq samaraga erishish. Tasodifiy emas dizaynni tarixiy tadqiqotda bizning XX asrimiz xukmron mamlakatlari qatorida «funksionalizm» me'morlik uslubi bilan chambarchas bog'lab ko'rib

chiqmoqdalar. Uning yorqin namoyondalari. Zamonaviy o'smir (yosh)lari xisoblanadi. Prezidentimiz yoshlarga berayotgan e'tiborlari bejiz emas. CHunki, hamma ishni davomchilari bu kelajak avlod yoshlarimizdir.Bauxauz direktorlaridan biri Xans mayer yozgan edi «Erdagi xamma buyumlar tejamkorligini yaratib, funksiyasini bir-biriga qo'shis. Materiallar va konstruktorlar tejamkorligi, muxitdan maqsadga muvofiq foydalanish VXUTEMAS nomli mashhur zamonaviy arxitektura va dizayn maktabida o'qitish qoidalarida etakchi bo'lgan.Masalan studentlarga berilgan masalalar orasida shundaylari bo'lgan: mavjud buyumni soddalashtirish, undan bezagini olib tashlash, konstruksiyasini aniqlash, ishlamaydigan qismlarini olib tashlash va hokozo, mavjud buyumni yaxshilash, uni ancha qulay funksional qilish. Xozirgi kunda tasviriy san'at kafedrasida ham aslidan qarab chizish va uni shakl-shamoyilini o'zicha go'zallashtirish vazifalari o'quv rejasiga kiritilgandir.

Dizayn mahsuloti nafaqat oddiy, zamonaviy, balki o'ziga xos bo'lishi shuningdek estetik namunali va ma'lum aholi guruxi didiga javob berishi lozim. Aks holda talabga javob bermaydigan bo'lib qoladi. Zamonaviylikni o'tkir his qilish va o'ziga xoslikda dizaynerning muvaffaqiyatli ishida albatta bajarilishi kerak bo'lgan shartlar hisoblanadi. Dizayn xuddi amerika mutaxassislari belgilaganidek, nafaqat sonlar xususiyatini-o'lchami, tezligi, mustahkamligi, tannarxi, anchagina nozik sifat qirralarini-foydalanishda o'ng'ayligini, har jihatdan qulay, uslubni yoritishga qodir. Odamlar «Fort-Taurus» avtomobilini nafaqat shunchaki sotib oladilar, nima u tezligini soatiga bir necha kilometrga oshadimi? Va bir necha litr benzinni sarflaydimi? Miqdoriy xususiyati bilan u bozorda bo'lgan boshqa modellardan unchalik ajralib turmaydi, «Taurus»ni noyob shakldaligi uchun sotib oladilar, bevosita egasi ma'lum qiladi, u qanaqa odam yoki kim bo'lib ko'rinmoqchi?

Zamonaviy dizayn rivoji asosida modaga ko'ra qandaydir anchagina muhim narsa yotadi: eng avvalo insoning ma'naviy ehtiyojlari va buyumni sifat go'zalliligi bilan shakl-shamoyilining boshqa buyumlardan ko'ra o'ziga xos latofat

uslubi bilan ko'rinishidadir. Inson yaratgan narsa faqatgina go'zal ko'rinishda emas, aniqlikka intilish. Bugungi sharoitda bizning xayotimizda texnikaning xukmronlik qiluvchi roli har holda oldingiga qaraganda buyumga ega bo'lishi muxim bo'lib qolmoqda, «o'zaro til topib» ketish mumkin, buyum, shunday loyihalanganki, darrov tushunarli bo'lib qoladi, bu nima o'zi? undan qanday foydalanish kerak? undan qanday ma'no bor? Dizaynerlik masalasi xar doim ham shunday bo'lgan, ammo bugungi kunda ular muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bizning asbob-uskunalarimizning ichki mexanizmlari, o'lchovi shunchalik kichiklashdiki buyumlar shaklini belgilamay qo'ydilar. Buyumlarni mikroelektronikadan foydalanib tayyorlanishi, hoxlagan tashqi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu dizaynerni ko'ngliga kelganini qilishidir. Bunday buyumlar o'lchovi endi ichki mohiyati bilan emas, balki tashqi faktori-ergonomikasi bilan, buyumni joylashtirish sharoiti xisobga olinadi.

## 1.2 Talabalarga zamonaviy dizaynerlik faoliyatini ko'rinishlarini pedagokik tomonlari.

Dizayn maqsadi bu dunyoni go'zallik shaklini yaratish, bizning ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotimizning muayyan bosqichini ochib berishdir deb yatadi D. Loxti.

Diniy aqidalarni bajaradigan tasvirlarda iloxiylashgan personajlar suratini xam oddiy odamlar suratidan katta xajmda ishlaganliklari guvoxi bo'lamiz . Jumladan, Panjikentdagi exrom devoridagi motamli ayol surati juda katta xajmda ishlangan. Buddaviylikka mansub Qoratepa ibodatxona devoriy suratlarida koxinlarning tasviri Budda yakinida kattarok, undan uzoqroqda kichikroq xajmda, daraxtlarning

esa Budda tasviriga yaqin va uzoqligiga bog'liq xolda, ularning kurtak ochishdan mevalari pishgan xolatigacha tasvirlanishi Budda mavqyeining balandligini ifodalash va uning iloxiy kuchga ega ekanligini tasvirda yoritishga qaratilgan.

Devoriy surat saxnalari tomoshabin tomonidan oson qabul qiliiishi uchun tasvirlar ramkalarga olingan. Yerqo'rg'on zardushtiylik ibodatxonasi interyerida saqlanib qolgan tasvir parchalari bundan guvoxlik beradi. Ayrim devoriy suratlarda xar bir shaxsning o'z o'rni, hurmati borligiga ishora qilingan. Jumladan, Ajinatepa Budda ibodatxonasida qatorma-qator xam vertikaliga, xam gorizontaliga o'girgan shaxslarning har biri yon tomonlaridan sariq novdachalar bilan o'ralgan. Novdachalar xar bir personaj boshi ustida oq rangdagi besh bargli nilufar guli bilan tugatilgan. Mazkur tasvirda buddaviylikka itoat kilganning xar biri o'z jannatmakon dunyosiga ega, degan ma'no yotsa ajab emas.

Ko'rib o'tilgan misollar shuni ko'rsatadiki, qadim zamonlarda ham rassomlar tasvirlarni yaratishda undagi personajlarning uzoq-yaqindan yaxlit ko'rinishi, muhim voqyea personajlarining birinchi sahnga chiqarilishi hamda personajlar mavqyeini, ularning xayotda tutgan o'rnini inobatga olganliklari guvohi bo'lamiz.

Shu o'rinda maxobatli tasvirlardagi ranglarning xona kompozisiyasidagi mutanosibligi haqida xam ikki og'iz fikr bildirishni lozim topdik. Shuni aytish lozimki Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikeit devorlarida saqlanib qolgan tasvirlarning ranglari xozirgi kunda ancha so'ngandek tuyuladi. Eslash joizki, ular XIII asrdan ziyod yer qarida yotgan. Namgarchilik, zax albatta o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu bilan mahobatli tasvirlardagi ranglar o'z vaqtida kishi ko'ziga yaqqol tashlanadigan darajada yorqinlikka ega bo'lgan, demokchi emasmiz. Shuni aytish lozimki, ular ganch bilan pardozlangan devor yuzasiga ishlangan. Ganch yuzali devor, ranglarning boy, vazmin vaznga ega bo'lishini ta'miilagan. Ya'ni yorqin rangning devor mag'ziga singib, bosiqroq va gamma jixatidan boy bo'lishiga olib kelgan. Ikkinchidan, tasvirlardagi ranglar yorqinlik jixatidan bir-biridan ajralmagan. Ular yaxlit bir gammani tashkil qilgan. Shuning uchun ham uning xamma qismi bir xil ko'ringan. Uchinchidan, devorlardagi mahobatli tasvir

shiftdagi bezaklar va xona poliga yoyilgan sernaqsh gilamlardagi ranglar bilan bog'lanib, yaxlit kompozisiyani tashkil qilgan. To'rtinchidan, tasvirlar xonaning nim qorong'i kismida, ya'ni yorug'lik manbaidan ancha ichkarida ishlangan. Albatta, ulardagi yorqinlik, xonaning nim korong'i qismida kishi badiga tegmaydigan darajada mayin ko'rinishni ta'minlagan. Beshinchidan, xona markazida shiftda qoldirilgan tuynukdan tushgan yorug'lik, devordagi naqshlarning orqa sahnaga o'tishini ta'minlagan. Anikrog'i, tuynukdan tushib turgan yorug'lik tufayli tomoshabin bilan devordagi tasvir oralig'ida parda osilgandek tuyuladi. Bu o'z navbatida ranglarning yorqinligini biroz susaytiradi.

Yuqorida keltirilgan dalillar, xona devoridagi mahobatli tasvirlarning ranglari o'zining badga tegmaydigan darajada mayinligi va mutanosibligi bilan kishida yokimli taassurot qoldirganligidan dalolat beradi.

Xona bilan xajmli Tasvirlar orasidagi mutanosiblikka ham katta e'tibor berilganligi guvohi bo'lamiz. Interyerlarda aksariyat holda haykallar maxsus bo'linma ichiga olingan. Bunday tadbirni Niso saroyi, Ajinatepa ibodatxonasi va boshqa obidalar interyerlarida ko'ramiz. Bo'linma haykallarni devor mag'zida joylashtirishda va uning interyerda obida devori bilan kompozisiya jihatidan bog'lanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan, haykalning, bo'linma korong'i zaminida fon yaqqol ko'rinishini ta'minlagan. Shuniigdek, interyer yaxlitligiga putur yetkazmagan va xona yuzasining bahavo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsaggan.

Hajmli tasvirlar interyerning baland-pastligiga qarab o'rnatilgan. Jumladan, Niso saroyining va ibodatxonaning balandligi e'tiborga olinganligi sababli haykallar ularning ikkinchi yarusidagi bo'linmalarga o'rnatilgan. Shuning uchun ham haykallar saroy va ibodatxona interyerining barcha qismidan yaqqol ko'rinadi. Shu tadbirni barelyeflarda ham ko'ramiz. Bunga Xolchayon interyeri guvohlik beradi. Undagi barelyeflar devorning yuqori qismida, ya'ni odam bo'yi balandligidan yuqorida ufq chizig'i yo'nalishidagi katorda o'rnatilgan. Haykallar bo'linmalarda bo'lmasligi xam mumkin. Jumladan, Budda ibodatxonalarida katta Budda haykali o'rnatish odati bo'lgan. Ularda katta xona to'rida maxsus poysupada Budsa xaykali o'rnatilgan. Poysupa 0,5 metrdan 1 metr balandlikkacha bo'lishi mumkin. Bunday

haykallar uchun ishlangan poysupalarning markaziy o'klarida uch yoki to'rt tomonda zinalar ishlangan. Ularning o'zi xam shoxsupaga o'xshaydi. Xona tantanavorligiga, g'ayritabiiy taassurot qoldirishiga zamin yaratadi. Natijada Budda xaykali o'z poysupasi bilan xona kompozisiyasida xukmroplikni bajaradi. Ya'ni xona interyeri Budda haykaliga kompozisiya jixatidan bo'ysungaqdek tuyuladi.

Haykallar xajmi maydaroq bo'lgan takdirda, ular devor bo'ylab yo'nalgan supalarda o'rnatilgan. Bunga Xorazmda Tuproq qal'a saroyining shohlar, askarlar xonalari misol bo'la oladi. Mazkur saroyda ko'chqor shoxiga monand shakllarning katta xajmda ishlanishi xam xonadagi maydaroq xaykallar bilan kompozisiya jihatidan bog'lanib, ularning interyerda salobatli ko'rinishini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan dalillar obidalarda qo'llanilgan badiiy tasvirlarning xona ichki ko'rinishi bilan kompozisiya jihatidan bog'langanligini ko'rsatadi. Ular xox maxobatli rangtasvir bo'lsin, xox xajmli tasvir bo'lsin, devor yuzasiga proporsiya jixatidan puxta joylashtirilgan. Devor balandligi va uzunligining inobatga olinib, bo'linmalarga taqsimlanishi, tasvirlarning yaxlit ko'rinishiga va xona kompozisiyasining boy bo'lishiga zamin yaratgan. Devorlardagi tasvirlarning uzluksiz bog'lanishi xona kompozisiyasining yaxlit ko'rinishini ta'minlagan.

Xona o'rtasida yoki to'rida joylashtirilgan xaykallarning xona kattaligiga nisbatan xajmi topilishi va ular uchun mos poysupaning ishlanishi, interyer kompozisiyasining yaxlitligini, obida majmuasida shu xonaning saloxiyati kattaligini aniq belgilaydi.

Markaziy Osiyoda islom dini o'rnatilgunga qadar xam xona dekorativ bezagiga alohida e'tibor berilgan. Dekorativ bezak ko'proq monumental tasviriy sahnalar ostida devorning izora qismida ishlangan. Ular, ko'proq o'rama tuzilishidagi o'simliksimon naqshdan iborat. Shunday naqshlar Varaxsha, Panjikent tasviriy sahnalarining pastki kismida ishlangan. Tasviriy pannolarning usti va yon tomonlari hoshiya vazifasini bajaruvchi uzluksiz takrorlangan doiralar qatori bilan chegaralangan. Hoshiyalarning pastki izora qismi ancha baland ishlangan.

Ilk o’rta asrlarda yog’och va ganch o’ymakorligi dekorativ bezakda keng qo’llanilgan. Panjikent, Varaxsha saroylarida yog’och, ganch yuzada qaxramonliklarni ifodalovchi sahnalar romb, doira, to’rtburchaklar ichiga olnngan. Ular nafaqat bir sahna epizodini chegaralovchi hoshiya vazifasini bajargan, shuningdek, bir xil mavzudagi o’simliksimon nakshli yuzani boyitish uchun, o’sha naqsh yuzasida ora-orada yoki uning markazida joylashtirilgan holda xam kelgan. Jumladan, Varaxsha saroyida vertikal, qiya tushgan novdachalar yordamida to’qima matoga o’xshagan fakturali yuza markazida, ichiga to’rt bargli gul nakshi ishlangan doira o’rnatilishi, naqsh yuzasini badiiy jihatdan boyitgan va zerikarli bo’lishidan saqlab qolgan, anikrog’i jonlantirib yuborgan. Doira, romb, to’rtburchak tuzilishidagi shakllar ikki kator xoshiya-chegaraga ega bo’lib, ular ichi esa, o’ymakorlik qilingan to’rtbargli gul, doirachalarning uzluksiz takrorlanishi va o’rtasidagi murakkab naqsh bilan boyitilgan. Ularning har qaysisi o’ziga hos alohida, mustaqil bezak turi sifatida gavdalanadi hamda devor yuzasidagi nakshlarni kompozisiya jihatidan jonlantirish mohiyatiga ega. Markaziy doira ichiga olingan va tashqarisidagi naqshlar doira atrofidan yon tomonlarga yo’nalgan nihollarning o’rama shaklda tugatilishi bilan, ular mavzu va kompozisiya jihatidan umumlashtirilgan.

O’rta asrlarda gul ganchdan murakkab naqshlar ishlangan. Bunga Termizdagi shoxlar saroyi devor va ustunlarining saqlanib qolgan qismlari guvohlik beradi. Unda geometrik va o’simliksimon kompozisiyalar, joylashgan o’rniga qarab, bir necha qator naqsh va bezaksiz keng chiziq kabi xoshiyalar bilan turli tuzilishdagi ramkalarga olingan. Bu tadbir devor yuzasidagi naqshli pannoning kompozisiya jixatidan tugatilishini ta’minlagan va turli mavzudagi naqshin yuzalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Binoning ichiga mayda naqshlar joylashtirilgan yirik doiralar Safed Baland maqbarasi interyerlarining devorlarida va sakkizburchak poygumbaz qismida keng qo’llanilgan. Doiralarning keng hoshiyalari bilan va chegarasi patnisga monand bezaksiz yuzalar ichiga olinishi, interyer naqshu nigorining kompozisiya jixatidan yaxlitligini ta’minlagan. Markaziy Osiyo me’moriy bezagida kvadrat naqshli yuza

o’rtasida doira ichiga olingan naqshni joylashtirish an’ana bo’lib qolgan. Ular o’rta asr imoratlarida ham mavjud. Jumladan, Samarkandda Shoxi Zinda majmuasining Shodi Mulk oqo maqbarasi interyerida kvadrat yuza o’rtasiga joylashtirshgan doira, naqsh yuzaning kompozisiya jixatidan boy bo’lishini ta’minlagan. Shuningdek, naqsh yuzaning bir xil, ya’ni zerikarli bo’lishidan asragan.

XII-XIII asrlarda, xususan, ma’muriy, diniy obidalar interyerida g’ishtin bezak keng qo’llanilgan. G’ishtlarning turli kompozisiyada, juft-juft, oralig’ida tik xolda, archasimon, ya’ni bir qator o’ng tomonga, ikkinchi qator chapga qiya yo’nalishda qalanishi, obida interyerida mayin bezakka ega badiiy kompozisiyani tashkil qiladi.

Markaziy Osiyo me’morchiligi dekorativ bezagida XIV asrdan boshlab ganch, yog’och o’ymakorligi, rangli bezak bilan bir qatorda mozaika, mayolika keng ko’llaniladi. Mozaika, mayolika, marmar yuzalar Madrasa, saroy, xonakox, masjid, makbara interyeri bezagida ko’proq ishlatiladi. Marmar toshli yuzalar devorning izora qismini pardozlashda va interyerda dekorativ ustunchalar, hamda sharafalar ishlashda qo’llanilgan. Buxorodagi XVI asrga oid Baland masjidi badiiy bezagini o’rgangan olima I.F. Borodina, masjid interri devorida ishlangan naqshlarning joylanishini, an’anaga aylangan sxemaga binoan bezatilgan, yani devorning pastki qismi - izora, undan yuqorida tokcha yoki dekorativ bo’linma va devor bilan shiftni bog’lovchi keng yog’och egallagan, deb ta’kidlaydi. Naqshlar xona devoriga quyidagi tartibda joylashtirilgan. 1 -xona interyerida yaxlit yuzani egallagan, 2 - to’rtburchak yoki ravok ichiga olingan yuzaga ishlangan, 3 - kirish ravoklari, ravoq kanoslari va mehroblar ichiga olingan holda, 4 izora sifatida ishlangan holda uchraydi. Xona devori baland bo’lgan takdirda tokchaga monand baland bo’linma yuzaga kelgan. Bunday bo’linma uchta taqsimlangan, ya’ni uning pastki qismi to’rtburchak tuziligandagi tokchaga ajratilgan, bo’linmaning yuqori qismi esa baland sharafa qatorlari bilan tugatilgan va umumlashtirilgan. Pastki tokcha devori yuzasiga yon tomonlarga kengaytirilgan butok yoki guldasta tasviri ishlangan. Baland bo’linma devori rangli chiziq bilan ikkiga taksimlangan. Pastki baland qismida uzun guldasta tasviri, yuqori qismidagi yuza rangli chiziklar yordamida 7-

8 ta yuzachalarga taqsimlanib, har biriga bittadan guldasta, gul tuvagi bilan yoki butok tasviri ishlangan. Shunday tartibdagi naqsh taqsimotini V.L. Manakova o'rgangan XIX asrga oid Buxoro turar joyining yozgi xona devorida ko'ramiz.

Baland bo'linmalar naqshini qismlarga ajratib ishlash, tasvirlarning mutanosibligini ta'minlashga qo'l kelgan. Shuningdek, naqshlarning ko'zga yaxlit-yaxlit ko'rinishini ta'minlagan. Devoriy bo'linmaning naqshli yuzalarga taqsimlanishi bag'dodi eshik tabakasini eslatadi. Eshik tabakasida ham u, devor- dagidek uch qismga taqsimlangan va markaziy bo'linma hamma vaqt balandligi bilan ajraladi.

Turli hajmdagi tokchalarga taqsimlangan devor kompozisiyasini badiiylashtirish uchun devorning ikki - uch joyida simmetrik tuzilishda tekis bo'linma yoki katta tokcha koldirilgan va ularga guldastalar tasviri ishlangan. Bu tadbir bilan devor yuzasidagi mayda tokchalar naqshli katta yuzalar yordamida kompozisiya jixatidan umumlashtirilgan. Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi xujralari devorlaridan biri fikrimiz isboti bo'la oladi.

Ko'p hollarda devor yuzasi markazini alohida belgilash uchun tokchaband qilingan o'rtadagi bo'linma atrofi ko'zga yaqqol tashlanadigan rang bilan bo'yalgan. Shuningdek, devor izora qismining markazida yon tomonlaridagiga nisbatan baland va keng yoyilgan guldasta yoki butoq tasviri ishlangan. Toshkent xalk me'morchiligida qo'llanilgan butoq va guldastalarda ularning novdachalari xam ifodalangan va gullar tasviri Buxoro va boshka shaxar xalkq me'morchiligi bezagiga nisbatan siyrakroq ishlangan. Xalk turar joy me'morchiligida nafaqat devor yuzasidagi naqshlarni, balki xona umumiy ko'rinishi naqshu nigorini kompozisiya va badiiy jixatidan umumiylashtirishga katta e'tibor berilgan. Tokchaband va nakshu nigorlangan to'rdagi devor o'zining boy badiiy bezagi bilan xonaning ikki yon tomonidagi devorlarini bir kompozisiyaga bog'lashiga erishilgan. Xonada devorlar nakshu nigori mutanosibligini ta'minlash uchun, xovli tomondagi devorda, bag'dodi eshik bilan to'silgan derazalar oralig'idagi bo'linmalarda xam naqshlar ishlangan. Yoz oylarida deraza ortidagi eshiklar ochilganda, xonadon a'zolari uchun,

xovlidagi gulzor bilan devordagi gullar tasvirini kuzatib o'tirish imkoni tug'iladi.

Umuman, devor yuzasi naqshlarining xoshiya bilan turli xajmda - tomonlari teng to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, romb, uchburchak, doyra kabi qismlarga bo'linishi va ulardagi naqshlarning bir-biridan farq qilinishi, ekilgan gullarga qarab ariqcha yoki yo'lak bilan chamanlarga ajratilgan gulzorni eslatadi. Xonaning xar bir devorida naqshlar yaxlit-yaxlit bir -biridan farqli, lekin umumiy kompozisiyaga bo'ysungan yuzani tashkil qiladi.

Xona interyeri kopozitsiyasida rang-barang naqshu nigorli devorlar, nafis bezakli shift va polga to'shalgan serbezak gilamlar birgalikda xona interyeri kompozisiyasini badiiy jixatdan mutanosibligini va xamoxangligini ta'minlagan.

## III-Bob Talabalarga dizaynni o'rgatishdagi tadqiqot natijalari.

**3.1** Talabalarga dizaynni o'rgatishda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish

Biz o'rganayotgan o'simliksimon naqsh elementlarini o'кganish, malum qonun qoidalar asosida amalgam oshiriladi. Naqsh elementlarini chizishni mashq qilishda qalamning sifatlisida foydalanishga harakat qilish, qalamni sifatli yoki sifatsizina ajrata bilish muxim axamiyatga ega. Chunki amaliy san'atning qaysi tur va janrlarini bilan shug'ullanmasin naqqosh uchun qanchqlik mo'yqalam, yog'och va ganch o'ymakor ustalari uchun esa o'yuvchi va yunuvchi iskanalar qanchalik muxim bo'lsa oddiy qora qalam xam shunchalik muxum axamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Chunki amaliy san'at ustasi naqsh kompazissiyasini yaratishda qalam asosiy ish quroliga aylanadi. O'ymakor-naqqosh xar bir chiziq tortganda, chizayotgan chizga sifatli, ravon va tiniq chiqsa usta shunchalik ilxomlanib, yangidan yangi elementlarni, kompozisiyqlarni yaratadi, kashf etadi. Oddiy qora qalamlar o'ymakor naqqoshning asosiy ish qurolidir.

"San'at rashkchidir, u tamoman o'ziga berilishni talab qiladi" degan edi buyuk uyg'onish davri rassomi, haykaltarosh Mikelanjelo. Haqiqatdan ham san'at sohasiga kirgan odam uning sehridan chiqa olmaydi. Dizayn san'atida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalari uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan ustalar ijodi bilan bog'lanib ketadi. Biz dizaynnga tarif berib o'tganimizda xalq amaliy san'atiga asoslangan tarzda o'zini namoyon etishni ham aytib o'tganmiz. Shu kabi amaliy san'atning dizayn yo'nalishini bolalarga o'rgatish masalasi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Amaliy san'at ustalari ko'pchilikni tashkil etadi,. Ammo ana shularni o'quvchilarga o'rgatishda taniqli, ma'lum bir muvoffaqiyatlarga erishganlarini tanishimiz kerak ekan, yana shuni aytish kerakki amaliy san'at ustalarining ishini o'rgatishda biz 1-son

pedagogika kolleji, Samarqand shahar qurilish va milliy hunarmandchilik kollejida, Samarqand san’at kollejlarida kuzatish olib bordik. O’qitishning metodikasiga oid tajriba sinov ishlarimiz ham ana shu kollejlarda olib borildi. Shunga avvalo biz o’rganuvchi tadqiqotlarni olib bordik. Bunga kollejlarning yillik ish rejalarini, hujjatlarini o’rgangan edik. Uning natijasi ko’p o’quvchilar, rassom ustalar hamda yaxshi tushunchaga ega emasligi bilindi,. Uni quyidagi dastlabki o’rganish orqali bilishimiz mumkin.

Dizayni o’rganish amaliy san’atning asoslaridan biri ekan ko’proq bolalar dizaynerlikni elita pardalar, kiyim kechaklarda ko’rinadi deb biladi. Ammo dizayn hamma moddiy, ma’naviy dunyomizda foydalanadigan narsalarning loyixaviy tuzilishi bo’ladi. Bunga kiyim - kechaklar, uy-ro’zg’or buyumlari, texnika vositalari, mehnat va ishlab chiqarish qurollari, o’quv jihozlari, bozor buyumlari hattoki soch turmaklarigacha dizaynga aloqadordir. Shularninggo’zal, yangicha loyihalashni yaratish dizaynning san’atiga dahldor.

Yana shu kabi masalalarda o’zbek xalq amaliy san’atini yaratuvchi ustalar ijodi katta ahamyatga ega.Talabalarning dizaynni o’rganishdagi qiziqishini o’zbek xalq amaliy san’ati ustalari ijodidan foydalanishga oid kollej va maktablarda kimlarning, qnday ishlari o’rganiladi tajriba sinov ishlarimiz bilan aniqladik.

Kollejlarning dasturida qurilish va milliy hunarmandchilik masalalari o’rganilib borishi ko’rsatilib o’tilgan unda 10soat vaqt ajratiladi. Yana ham bu mavzular orasida suxbat jarayoni bilan birga olib borilishi ko’zda tutilgan.

Tasviriy san’at ustalari, rassom dizaynerlardan “ F. Saydaliyev, usta U. Jo’raqulov, X. Raximova” larning ijodi o’rganilib taxlil etiladi.

Usta dizaynerlar  Gerit Tomas, Ritveld, Valter Groups, Mixail Tonet, Petero Berens Reymond Lui, Kamillo Olivetti, Ervin, Djio Ponti, V. Tatlin Artur Braunlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan usta dizaynerlarni qanchalik bilishi  yuzasidan so'rovnoma asosida  sinov o'tkazdik. Uning natijasi quyidagi jadvalda keltiriladi.

Usta dizaynerlarni bilishi. 1-jadval orqali baholandi.

1-jadval.

| Baho | Savollar | | 1-S | 2-S | 3-S | 4-S | 5-S |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| A'lo | | | 4(%) | - | 6(%) | | |
| O'rta | | | 20(%) | 7(%) | 19(%) | | |
| Past | | | 22(%) | 39(%) | 21(%) | | |
| Jami | | | 46(%) | 46(%) | 46(100%) | | |
| | | | | | | | |

46 o'quvchi so'rovnomada qatnashdi.

Savollar:

1. Dizayn sanatining mazmuni va ma'nosi nima?
2. Qanday xalq ustalarini bilasiz?
3. Amaliy san'at turlari qanday?
4. Dizayn san'ati qachon paydo bo'lgan?
5. Amaliy sanat ustalari dizaynermi?

Bu savollarga berilgan javoblarni tahlil qilar ekanmiz quyidagicha bo'ldi. Bu birinchi tajriba sinov ishimizning natijasi xisoblanadi.

Birinchi savolga      4 o'quvchi a'lo, 20o'quvchi o'rta va 28o'quvchi past ko'rsatgichda javob berdi. Ko'rinib turibdiki dizaynni to'liq ma'nosini hamma o'quvchilar birdek bilmaydi.

Ikkinchi savolga qanday xalq ustalarini bilasiz? Degan savol juda past bo'ldi. Faqat ularga dars berayotgan ustalarni biladi xolos, a'loga javob bergan o'quvchi yo'q, o'rta baho 7 nafarni tashkil etdi. Pasti esa 39 nafarni. Bu juda past ko'rsatkichdir. Agar o'quvchilar o'zlashtirishijarayoni qo'shimcha darslar darslar bilan yoki soatlarni nazariy ham oshirmasa usta rassomlarni bilmay qolaverishadi.

Uchinchi savoldagi amaliy san'at turlari qanday? Degan savolga aniq va bir xildagi javob olinmadi. Shunday bo'lsada a'loga 6nafar o'quvchini,o'rtaga 19nafar o'quvchini, pastga 21nafar o'quvchini kiritish mumkin. Aytish mumkinki o'quvchilar xalq amaliy san'ati turlarini ham yaxshi bilmaydi.

To'rtinchi savolga ya'ni, dizayn san'ati qachon paydo bo'lgan degan savolga ham berilgan javoblar past bo'ldi. Chunki xalq ustalari va amaliy san'atning yaratuvchilari to'g'risidagi materiallar hammaga yetarli tarzda holi ommalashgan emas. Ba'zida berilgan maqola yoki ocherk tarzidagi ishlar haligacha ta'lim jarayoniga yetib brogan emas. Shuning uchun a'lo bahoga arziydigan o'quvchilar 3% foizginani tashkil etadi. Bu 7 nafar o'quvchi a'lobo'ldi degani, 19nafar o'quvchi o'rtacha o'zlashtirishga o'zlashtirdi, 20 nafar past o'zlashtirishga ega bo'ldi.

Beshinchi savolga amaliy san'at ustalari ham dizaynermi? Degan savolga asosan ikkilanishlarga ega bo'ldi. Bu aniq holi o'quvchilar bilimining shakllanmaganini bildiradi. Aniq javobni 12nafar o'quvchi a'loga, 21o'quvchi o'rtacha va 13o'quvchi past ko'rsatgichda javob berdi. Endi o'z-o'zidan ma'lumki o'quvchilar xalq amaliy san'ati va ularning yaratuvchilarini aniq tasavvur eta olmaydilar. Biz o'rgangan va savollar bilan aniqlagan ishlarimiz asosida kollejlarda darslarni tashkiletish rejasini tuzib chiqdik. Ana shu reja asosida dars ollib borib natijalarni qayta tekshiruvdan o'tkazishga harakat qildik.

Tasviriy va amaliy san'at ustalari ijodida dizayn san'ati masalalariga oid ma'lumotlar "O'zbekiston san'ati" nomli 2001-yilda chiqgan kitobda qisman beriladi.Unda amaliy san'atning bir qancha turlarini rivojlanishi bilan dizayn san'atining asosiy tur va shakllari ham keltirib o'tiladi. Dizayn bilan birga

rivojlanayotgan amaliy san'at turlari halq orasida ommaviylashib ma'lum bir sanatkorona ko'rinishlarni o'zida jam qilmoqda.

Ana shularni o'quvchilarga o'rgatib berish bilan ularni tasviriy san'atga qiziqtirish mumkin deb bilamiz.

Xuddi shunday bilimlar hajmini oily ta'lim misolida ham ko'rib chiqganimizda taxminan bir xil natijani ko'rsatdi. Shu savollarga javob bergan amaliy san'at yo'nalishi talabalari shifri 7111000 – amaliy san'at ( tasviriy san'at va muxandislik grafikasi), birinchi bosqichda javoblar yaxshi emas.

Asosiy talablardan kelib chiqib shunday xulosalarga kelishimiz mumkin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quvchilari amaliy san'at ustalarining ishlaridan doimiy xabardorligini tashkil etib borishi lozim bo'ldi. Chunki, dizayn san'atini yatatuvchilari ham ustalar, rassomlar va memor, haykaltaroshlardir. Bularning ijodini yaxshi o'rganmay turib yangi ish yaratish mumkin emas.

Tasviriy va asmaliy san'at yo'nalishida taxsil olayotgan o'quvchi – talabalar xalq amaliy san'atiga oid adabiyotlar, materiallarga ega bo'lishi va ularnimukammal o'rganishi lozim. Shuningdek o'quvchilar bilan doimiy xalq ustalari faoliyatini, dizaynerlar ishini bilib, ko'rib turishi ular bilan muloqotda bo'lishi kerak.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv dasturida amaliy san'atga ajratilgan o'quv soatlarini kengaytirish va ustalarning bajargan ishlarini o'rganib borishi tashkil etish lozim.

Har bir talaba tasviriy va amaliy san'atga oid ishlarni dizayr san'ati bilan birgalikda o'rganish imkoniyatini tashkil etishiga o'qituvchilar e'tibor berishlari lozim.

Ko'pchilikka ma'lum xozirgi kunda, hamma yerda texnik taraqqiyot rivojlanib, yangi-yangi texnologiyalar yangi buyumlar ishlab chiqarish yildan yil ko'paymoqda. Bunga sabab xalq istemol mollari o'rtasidagi raqobatdir. Turini, xajmini, rangini yangilash kerak.

Zamonaviy sanoat buyumlari notexnologik bo'lishi mumkin emas, aks holda u mashinali ishlab chiqarish mantiq ilmida va bozor qonunida ziddiyatli chiqish qiladilar, texnologiya masalasi unchalik ahamiyatli emas. SHishadan badiiy buyumni yaratishda faqat puflash texnologiyasini o'rganish orqaligina mumkin bo'ladi, hamma nozik qirralash va shishani presslashni, zargarlik bezaklarida esa-qimmatbaho toshlarni ishlashda va rangli metallarni qayta ishlashda, uni egallashda malaka hosil qilmoq lozim. Ommaviy mashinada ishlab chiqarish sharoitida texnologiyaning roli ishlab chiqarishda va buyumni hosil qilishda ko'p marta o'sadi, rassom dizaynerga bog'langan yangilanish muammosi ishidagi markaziy masalalardan biri bo'lib qoladi.Inson iqtidori, qobiliyati, fikr doirasi, doimo birinchi man'ba bo'lib kelgan. Hamma jarayonda inson fikri va zakovati rivojlanish, taraqqiyot etaklovchisidir. Texnika-texnologiya esa, inson qo'l mexnatini engillashtirish uchun asosiy omillaridan biridir. SHuni unitmaslik kerakki, xar qanday texnikani boshqarish pulti inson qo'li bilan amalga oshiriladi. CHunki, shu taraqqiyot sababchisi ham siz bilan biz. “Progress” va “yangi texnologiya” tushunchasi bugun amaliyotda sinonim hisoblanadi. Yirik ixtirolar va ilmiy-texnik yutuqlar darrov o'z aksini dizaynda topadi, yangi badiiy shakl ko'rinishida va ishlab chiqarish buyumlarni yangisini ajratish qisman esa yangi falsafiy shakl hosil qilishda. SHunday paydo bo'lgan XX asrning 60-yillar o'rtasida plastmassa sintetik polimerlar asosida shakllarni konstruktorlashda alohida plastiklikka ega bo'lgan, yuqori tejamkorlik va estetik ko'rsatkichdagi, a'anaviy qo'yishni anglashda turtki bo'ldi, qoliplashda va sanoatda shakl hosil qilishda, yangi texnologiyani qayta ishlashda-chig'irlab, zichlab, ekstruzion uslublari, rotatsion va akkumlashtirish, changlashning turli uslublari. Dastlabki shakldagi o'rniga an'anaviy materiallar keramika, metall, yog'och o'rniga yorqin va engil plastmassa buyumlar keldi, ishlab chiqarishni anchagina kengaytirishga yo'l qo'ygan maishiy buyumlar, ularning tashqi ko'rinishini yaxshilash, foydalanishda ancha qulay qilish. Jahonda plastmassa ishlab chiqarish xajmi 1979 yildan 1989 yilgacha taxminan 5 barobar o'sdi. Ayniqsa bu kundalik xayotga talluqli buyumlar: mebel, idishlar, televizion va radioapparaturalar, maishiy

to’plamlar, unda tashqi ko’rinishdagi zamonaviylik masalalari, modalar va estetikalar alohida dolzarb ahamiyatga ega. Bug’li dvigatel ixtirosi, ichki yonuv dvigatel na faqat turlar ob’ekti kengaytirildi dizaynerlik faoliyatida, unga qator yaxlit yangi turlar kiritildi: avtomobil, aviolaynerlar, kosmik kema, ammo yangi tezlikda o’zlari bilan olib kelgan insonni o’rab olgan bo’shliqlar orasidagi-narsalar shakllarini qabul qildi. Dinamik qabul qilish yuzaga keldi tomoshabin oldidagi ko’rinuvchan suratlar to’xtovsiz almashinib, harakatdagi transportda ro’paro kelgan . Katta harakatdagi bo’shliqda aralashgani esa  havo va er ostini hisobga olib  bungacha mavjud bo’lgan yaxlitlik jarayonini insonni o’rab olgan uning atrofidagilarni qabul qilib qoidani buzilishiga olib keladi, uluq-yuluq mantiqiy aloqalar alohida arxitektura va ko’rinuvchan suratlar shaklidagi o’zaro bog’liqlik: sanoqli daqiqalar yoki soatlar bir izli osma yo’l  yoki er osti metrosi tezligi yordamida zamonaviy inson biridan arxitektura orasida boshqasiga o’tib qoladi, samolyotda esa u xatto qishdan o’zga, kechadan kunduzga joylashishi mumkin. Natijada atrofimizdagi dunyo surtida keskin o’zgarishlar yuzaga keladi. SHularning hamma-hammasining sababchisi insondir. Halqimizda bir ajoyib ibora bor “Inson hamma narsadan ulug’” bu ilohiy so’z bo’lib, butun mahluqotlarning ulug’i insondir. Bu qilinayotgan sayi-xarakatlar dizaynerlarning tabiatimizdagi bo’shliqlar orasidagi narsalarni takomillashtirishda qat’iy yangicha yondoshishni, arxitektor va dizaynerlardan ergonomika, psixologiya, inson aql-idroki, aerodinamika va ko’pgina boshqa sohalarni alohida bilishni talab qilinadi. Bugungi kunda dizayner bilim dargoxlarini ochilishiga sabab ham shundadir.

Dizayn-bizning vaqtimizdagi farzandlarimiz, sanoat revolyutsiya inqilob vaqti, sifatli yangi ishlab chiqarish texnologiyasini yorib o’tish. Agar arxitektura hamma e’tirof qilgan jahon yilnomasi hisoblansa, dizayn esa-o’ziga xos shakldagi yilnoma texnikasidir, materializatsiyalashgan qat’iy shakldagi narsalar-dizayn yaratgan-o’zining rivojlanish tarixiga ega. Chunki, dizaynchi qo’li tegmagan narsa, o’z shaklini chiroyini, qomatini yangilay olmaydi.Yorqin misol bu erda zamonaviy fotoapparatning evolyutsion shakli bo’lib xizmat qiladi.  Dastlabki kamera-

abektura o’tgan 100 yillikning boshlarida to’g’ri to’rtburchakli quti shaklida bo’lgan va ular hammasi bir necha o’n kilogrammgacha etib kelgan. SHunday beso’naqay va og’ir fotoapparat bilan suratga olish faqat maxsus taglik -uch oyoqli bilan mumkin bo’lgan, takomillashmagan foto materiallar talabi esa favqulotda uzoq muddatli ko’rgazma va maxsus yoritgich qurilmalari-magniyli chaqnash qo’llanilgan. Yuqori ta’sirchanli fotomaterialning paydo bo’lishi bilan va fotografiya texnikasining rivoji bilan ancha engil taxlanma konstruksiyaga va mex, teriga o’tish yuz bedi. Keyingi bosqichdagi rivojlanishlar filmdagi-rol ijrosi bo’ldi, undan jajji miniatyurali, kichik hajmdagi fotoapparatlarga olib keldi, dastlabki birinchi timsollardan biri mashhur avstriyalik muxandis-konstruktor O. Barnakning afsonaviy "leyka“si bo’ldi. Sifatli yangi fototexnikaning XX asrning 70-yillaridagi keskin o’zgarishi yana yangi fotografik materiallarning paydo bo’lishi bilan, bog’liq bo’ldi, yangi konstruksiyadagi fotoob’ektivlar, elektronli qulflar, elektorli chaqnashi bilan. Bugun muxbirlar fotokamerasi, ko’rgazmali avtomat saralangan ta’minot vazifasi, ob’ektivda fokus oralig’idagi o’zgarish va avtomatli keskin mo’ljalga olish, elektronli fotochaqnash, uni butunlay ozod qiladi, texnik masala echimidan, ijodiy jarayonda uning butun diqqat e’tiborini bir erga to’plashga sharoit yaratadi. Raqamlar texnologiyasi rivoji, shu bilan birga esa-axborot olib boruvchilarning radikal almashinuvi, fototexnikaning sifatli yangi bosqich rivojini va uni shakl hosil qilishini belgilaydi. Taraqqiyot ta’siri orqali xozirda bularni o’rniga yangi raqamli fotoapparatura keldi, fototasvirni ximiyaviy qayta shlash jarayoni bundan mustasno, birpasda natijasini ko’rishga qodir va yo’ldoshdagi aloqalardan foydalanib tasvirni reaksiyaga uzatish. Ko’pgina narsalarning maishiy texnikasini shakl hosil qilishini evolyutsiyada o’xshashlikda topish mumkin: telefon shakllari rivoji-besunaqay qutidan alohida mikrofoni va nauchnigi bilan, kamutator orqali ishlaydigan, to zamonaviy telefon telefon apparati faksi bilan va avtojavob beruvchi, radioaloqa imkoniyati, abonement raqamini eslab qoluvchi, yo’ldosh orqakli xoxlagan sayyoralar nuqtasi bilan aloqaga chiqishi mumkin: televizorning rivojlanish jarayoni-birinchi lampali telepriyomnikdan oq-qora tasvirdagi oldiga miniatyurali kichik linzali ekran tirkalgan tasvirni

kattalashtiradigan, to zamonaviy yassi maydoni monitorli o'zgarmas bir necha kvadrat metrli, suyuq kristalli eng yangi texnoloiyadan foydalanib bajarilgan. Bularning hammasi inson aql-zakovatining mahsulidir. Dizayn to'g'ri bozor talab va extiyojlarga qarab bo'ladi . Bozor ishlab chiqaruvchini doimo yangilikni izlashga turtki bo'ladi, hammasi ancha takomillashgan va iqtisodiy echimda, zamonaviylashtirish va ishlab chiqarishni yangilash, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini muntazam ravishda joriy qilish, xalq iste'mol mollariga uzluksiz tadbiq qilish oqibatida o'sish betuxtov davom etadi. Dizayner shu yangiliklar jarayonida ishtirok etar ekan u ham o'z navbatida mahsulotni qaysi bezagi xalq nazariga ko'proq tushmoqda. O'z navbatida bu ilmiy izlanish va tajribalarni rag'batlantirish, shu korxona maxsulotini raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Chunki, maxsulot mukofoti shunga turtkidir.

Sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy izlanish yo'llaridan biri qisqartirilgan son bilan tayyorlanayotgan mahsulot qism turlarini, ish hajmini va ishlab chiqarish muddatini ma'lum darajada qisqartirishga yo'l qo'yib, natijada esa ancha kam xarajatli tejamkorlik qilish. Biroq bunday ishlarni yangi shakldagi narsalarni yangi arxitektonika bilan, yangi xususiyatdagi elementlarni uslublashtirishda badiiy izlanishsiz dizayin ishtirokisiz yangi shakllarni yaratib bo'lmaydi. Misol tariqasida XX asrning 60-yillarida mebel ishlab chiqarishda shakl hosil qilish qoidalari o'rnida keltirishimiz mumkin, yangi texnologik talab va imkoniyatda qabul qilingan: eskisi o'rnida, ko'p elementli konstruksiyadagi murakkab bog'lamdagina mustahkamlashda plastmassa, fanerlar, shishani yaxlit egilgan shakllarga keltirish.To'xtovsiz o'sayotgan zamonaviy darajasi hamma va ancha baland talablarni doimo olg'a tomon siljitadi qulaylikni, gigienani, ekologiyani, inson atrofidagi narsalarni. Bu o'ziga xos turtki yangi texnik echimini izlanishda turibdi. Atrofimizdagi buyumlar qulayligi masalasi azaldan insonni to'lqinlantiradi. Ibtidoiy odam qo'l shakliga mos toshni tanlagan, anchagina qulay bo'lishi uchun uni taroshlagan, unga dasta qilib, o'zini himoya qilish uchun, ov va ovqatni o'lja qilishda hosil bo'lgan qurolni qo'llagan.

Arxeologik qazishmalar bizga ba’zan ajoyib o’ylangan va foydalanish uchun qulay bo’lgan ish quroli, toshdan taroshlangan, hayvon suyagidan tayyorlangan, keyinroq esa-temir va bronzadan qo’yilganini namoyish etadi. Ov uchun dastlabki birinchi qurol yog’och cho’pi, yo’nalgan yaxlit daraxt shoxi bo’lgan. Unda cho’p qismi dasta rolini o’ynaydi va ancha ingichka, qo’l barmoqlarida ushlash uchun qulay «uriladigan» qismi esa-ancha og’ir, qalin bo’lgan. Inson yaratayotgan buyum olamida o’zining jismoniy parametri va fiziologik o’z organizmi imkoniyati bilan taqqoslanadi. Kishi biron narsa ixtiro qilar ekan, eng avvalo o’ziga mostlab yaratadi, o’zi foydalanadi...Ma’lumki, deyarli hamma asosiy qadimiy o’lchovlar inson tanasi qismi o’lchami yotadi. Ushbu ingliz fut qadam, o’rtacha erkak qadami-0,3048 m uzunligiga teng, ruslar: qo’lning ko’rsatkich barmog’i bilan bosh barmoqning boshdan oxirigacha cho’zilgan oralig’i, lokot-uzunlik o’lchovi, tirsak suyagigacha bo’lgan uzunlik to’g’ri keladi va tengligi -455-475 mm. Bunday universal har tomonlama o’lchov birligidan foydalanib, har doim «qo’l ostida» yoki «oyog’i»da bo’lgan, o’sha davr ustalari favqulotda aniq arxitektura inshootlarini, maishiy, ish buyumlarini yaratganlar. Jismoniy parametrlar asosida inson qaddi-qomati hatto butun metrik tizimda yaratilgan edi. qadimiy manba’larda inson tanasi nisbatan qonunida Memfis yaqinidagi ehromlari taxminan eramizdan avval 3000 yil sag’analardan topilgan edi. O’sha vaqtdan va to bizning kunimizgacha olimlar va rassomlar inson tanasi nisbati sirlarini ochish ustida ishlamoqdalar. Firavnlar vaqtidagi misrliklar qonuni, Ptolomeylar davri qonuni, qadimgi gretsiya va Rim qonunlari bizga ma’lum. Poliklet qonunini, Alberti, mikelanjelo, Dyurer, Forobiy, Al beruniy, Al xorazmiy tadqiqotlarini biz bilamiz. Leonardo da Vinchi ishlari ushbu yo’nalishda inson tanasining grafik modeli qonuni nisbatini yaratish bilan tugallandi. Al Xorazmiy o’zini «algebra» ilmiy ishlarini o’lchovini yaratdi.

O’rta asr hunarmandchilik tajribasida o’lchov moduli va uni qo’llash qoidalari tadqiq qilindi, o’zining nuqtai nazaridan inson uchun qulay buyum va turli xil o’lchovda yaratilgan qolip sifatida xizmat qildi. XIX asr tadqiqotchilari

birinchi galda A. Seyzing, inson nisbatini nozik o'lchovlar asosida o'rganayotganini taqqoslab va oltin oqimi qoidasini qo'llagani e'tiborga loyiqdir. Mutaxassis-arxitektorlar orasida keng ma'lum «Modular» Le .korbyuze-garmonik tizim o'lchovi, qonunga asoslangan «geometriya» inson tanasi va qoidaga «oltin oqimi». Le Korbyuzening o'z tavsifiga ko'ra «Modular-bu katta ahamiyatga ega bo'lgan, qator yoki boshqacha shaklda ishlab chiqildi, masalan, mashinada, mebelda, kitobda». Garmoniya sohasida inson atrofidagi narsalar orasida izlanishlar hozir ham davom etmoqda. Arxitetkor biron loyiha uy tasvirini chizar ekan, albatta imoratni kattaligi odamga nisbat qilib oladi.

## 3.2 Talabalarga dizayn san'atini o'rgatishning tajriba- sinov sihlariborishi va natijasi.

Dizayn san'atini o'qitishning masalalarini yoritar ekanmiz avvalo biz o'tkazgan birinchi s'rovlar natijasini o'z izlanmalarimiz asosida darslar tashkil qilish va uni yana qayta o'rganishga e'tiborni qaratdik.

Tajriba sinov ishimizning maqsadi talabalarga dizayn san'atini o'rgatishning samaradorligini aniqlash o'z matodikamizning to'g'ri ekanligini isbotlab bo'ldi.

Vazifalari esa: birinchidan tajriba sinov maydonchalarini elgilab olish, o'quvchilar guruhi va sinfini aniqlab bo'ldi. Ishlarni shu tarzda olib borish masalasi ham kollej rahbariyati bilan kelishib olib bajarildi.

Biz oldimizga qo'ygan maqsad vazifalarimizni aniq javobini olish uchun o'zimiz tuzgan dizayn san'atiga oid ishlarni va dasturni muvoffaqiyatni o'rgandik.

Sinov ishlarimizda 100ga yaqin amaliy san'at yo'nalishida taxsil olayotgan o'quvchilar va 4nafar ularning o'qituvchilari qatnashdi. O'quvchilarning hammasiga turli amaliy san'atning dizaynga aloqador savol so'rovnomalartarqatildi.

U so'rovnoma ilovalarda keltirilgan.

Bunda 1 so'rovnoma, dizayn ma'nosini anglashga oid so'rovnoma.

1-Ilova

Amaliy san'atda dizayn aloqadorligini o'rganishga oid so'rovnoma.

2-Ilova

Anketa so'rovi.

3-Ilova

Talabalarga amaliy san'at bilan dizaynning bog'liqligini o'rganish so'rovi.

4-Ilova

Tajriba – sinf ishlari jarayonida kollejlarning rejadagi barcha ishlari o'rganildi, kuzatildi va ochiq darslar olib borilib tahlil qilindi. O'quvchilarning dizaynni tushunishni shakllantirishda foydalanish uchun 1, 2, 3, so'rovnomalar bir-birini to'ldiradigan ketma-ketlikda tuzildi. Biz so'rovnomalarning o'zida asosiy va yordamchi savollar bergan edik. Ko'proq og'zaki savol javoblardan ham foydalandik.

Shunigdek, so'rovnomalarni tuzishda o'quvchilarning yoshlik xususiyatlari ham xisobga olindi. Shuning uchun ham o'quvchilar dizaynni amaliy san'at ekani

va undagi turlar juda ko’p bo’lib turmushda foydalanadigan hamma narsalar uning izmiga oid ekanini tushunib yetish maqsad qilib qo’yildi.

Kuzatishlarimizdan ma’lumki o’quvchilarning dizayn va amaliy san’atni bilishlari oldiniga yuzaki bo’lgan bo’lsa keyingi so’rovlarda uning ancha anglab yetilganiga guvohi bo’ldik.

Amaliy san’at turi sifatida dizayn ham qaralib uning turmushda foydalanilayotgan barcha turlarida dizaynerlik bilan ham bog’liq ekani tushunildi.

**Umumiy xulosa:**

Tadqiqotishimizningolibborishidao’rganilganmanba’alar, kuzatilgandarsmashg’ulotlarihamdsatajribasinovishlarimiznatijasiquydagichaxulosalarniberishimnizgamosbo’ldi.

Kasbhunarvaoliyta’limtarbiyaviyvaamaliysan’atdasturrejalario’rganilishidarssoatlarihajminingortishikerakligiko’rsatadi. Shuninguchun ham dizaynbutunhayotimizninghammajabhalariniqamraboldi.

O’zbekxalqamaliysan’atiqadimdanrivojlanganligiva u turlibadiiybezatilishibilan ham o’zgachako’rinishlargaegaligibugungi kun amaliysan’atida ham muhimahamyatkasbetadi. Tasviriyvaamaliysan’atgabo’lgano’quvchilarningqarashinishakllantirishningasosiy vazifalaridanbiribo’libxisoblanadi. Amaliysan’atvashundayvazifavamaqsadlarnirivojlantirishdamuhimbositadir. Tasviriyvaamaliysan’at – tarixiyrivojlanishio’rganilishijarayonidaholikasbhunarta’limidayetarlimuammolarborligima’lumbo’ldi. Bularnibartarafetishyo’llarivadarsdantashqarita’limtarbiyaviyishlarniyaxshilashgabog’liq deb hisolayman. Maktabkasbhunarta’limidaamaliysan’atningdizaynbo’liminio’rgatishningmasalasi ham muhimbo’libuningasosiytomonlario’qitishdagidarssoatlarningjuda ham kamekanligibilan ham izohlanadi Bu masaladiamaliysan’atta’limigaberilganvaqtlaro’quvchilargayetarliemasligiko’rsatilmoqda. Amaliysan’atgaaloqadorkollejlariningdarssoatlariniko’paytirishningvaundadizayngaaloqadorqismini ham yetarlidarajadaoshirishlozim. Barchakasbhunarkollejlarida ham turlitumandarslardantashqaritadbirlaruyushtiribbormoqda, shukabidizayngaoidi ham qizlargaoidlari ham bor. Ammo yigitlaruchunungaqiziqtiradiganlariyo’q.Bu masalalarda ham fikryuritibko’rishga ham vaqtyetdi. Amaliysan’atgnio’qitishgaoidturliuslubiyqo’llanmalar, darsliklar, tavsiyanomavakeraklimateryallaryetarliemas. Shungakerakliashyolar, tarqatmamateriallar, ko’rsatmaliqurollarbo’lishilozim. Harbiramaliysan’atmateriallarnimeyoridatashkiletishuchuno’quvchilarningyoshlik va individual xususiyatlarini ham xisobgaolishtalabqilinadi.

Shungaoidko’rsatmalarbilanhammakasbhunarkollejlaridatayyorgarlikyetarlibo’lishilozim.

Dizaynsan’atinio’rganishdafaqato’quvchilardauningma’nomazmunini, ma’naviy, ahloqiy, tushunchalarnishakllantirishgaginemas, balkio’quvchilardatushuncha, Tsavvurlasrdanastasekinmuayyanko’nikmavaxislatlarnitakomillashtishgao’tishnirejalashtirmog’Ikerak.

Dizaynsan’atibilanbog’liqishlarnio’rganishborasidakollejo’quchilarigaolibboriladigandarsmashg’ulotlariningmazmun, ma’nosi, asarlar, sur’atlarya’ni, raproduksiyasiko’paytirilibulardanfoydalanishningturliusulvayo’llariqo’llanilishilozim.

Amaliysan’atta’limyo’nalishidadizaynnio’rganishgaoidyetarlidarajadadarsishlanmalaribilano’qituvchilarnita’minlashivanoananaviyusullardadarslarnitashkiletishgae’tiborniqaratishimizlozim.

Tasviriyvaamaliysan’atmashg’ulotlrigaoidbo’lganilmiytadqiqotishlarnijonlashtirish, uningsamaralijihatlarinio’quvfaoliyatidaqo’llabyaxshiyutuqlargaerishishkerakbo’ladi. Shundsakasbhunarta’limidadizaynnio’qitisahningborasidagiishlardarivojlanadi. O’quvchilarta’limiturlijihatlarda kata muvoffaqiyatlargaerishishdakafolatlitizimbo’ladi.

**Ilovalar:**











## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.


1. I.A.Karimov “ Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotininng poydevori”. T. “ O’zbekiston” 1999-yil.
2. I.A.Karimov “ Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. T “ O’zbekiston” 1996-yil.
3. I.A. Karimov “ Istiqlol va ma’naviyat” T. “ O’zbekiston” 1994-yil.
4. I.A.Karimov “ Yuksak malakali mutaxasislar taraqqiyot omili”. T.” O’zbekiston”.
5. I.A.Karimov “ O’zbekiston taraqqiyot yo’lida” T. “ O’zbekiston”.1994-yil.
6. I.A. Karimov “ Turkiston umumiy uyimiz”. T. “ O’zbekiston”. 1994-yil.
7. I.A.Karimov “ Ma’naviyat yuksalish yo’lida”. T “ O’zbekiston”. 1998-yil.
8. I. A. Karimov “ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. T. “ Ma’naviyat” 2008-yil. 171 bet.
9. A. Erkayev “ Ma’naviyat- millat nishoni”. T. Ma’naviyat, 1997-yil, 27 bet.
10. B.Q. Xolmatov “ Naqqoshlik”. T. Iqtisod moliya, 2007-yil.
11. B.Q. Xolmatov “ Kompozitsiya” T.Iqtisod moliya, 2007-yil.
12. Ye.V. Lebedova, P.M. Cheremnix” Искусство художникка-оформителя” M. 1981-yil.
13. Ж.Баримвеков “ Казахский орнамент”. Alma ata. 1986-yil.
14. K.M. G’ulomov. “ Amaliy san’at”. T. Iqtisod moliya. 2008-yil.
15. K.M. G’ulomov. “ Ashyolarga badiiy ishlov berish”. T. “ Bilim”. 2004-yil.
16. K.M. G’ulomov. S.S. Bulatov “ Sharqona usta shogird odobi “. O’zR. OO’MTV o’quv adabiyotlari, jurnali va byuletenlarini tayyorlash markazi, 2000-yil.

17.L.I. Rempel, Pugachenkova. G. A.“O’zbekiston san’ati tarixi”. T. 1965g-y.
18. M. Imomnazarov. “ Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari”.T. Sharq. 1996-yil. 6bet.
19.М.В. Алпатов “Композиция в живописи.” Т.М.Исскуство 1940г.

20. M.B. Axmedov “ Yog’och o’ymakorligi”. T. Iqtisod-moliya. 2007-yil.
21. M.K. Mirzaahmedov. “ Boshlang’ich naqsh ishlash metodikasi”. T. O’qituvchi. 1976-yil.
22. M.Nabiyev. “ Rangshunoslik”. T. O’qituvchi. 1995-yil.
23. M.T. Семенова. “ Народное искусство и его проблемы” M. 1977-yil.
24. O.K. Apuxtin. “ Badiiy naqsh maktabi”. T. O’qituvchi. 1969-yil.
25. Q.Q. Qosimov, ”Naqqoshlik”. T. O’qituvchi. 1990-yil.
26.С.М. Михаилов “Основў дизайна”. Москва.2002г.союз Дизайнеров.

27 . С.А. Соловев. “ Декоративное оформелени”. M. 1987-yil.
28. S.S. Bulatov va M. Ashirovlar. “ Amaliy san’at atamalar lug’ati”. T. Ensiklopediya bosh red. 1991-yil.
29. S.S. Bulatov, L. Dadashev.” Naqsh alifbosi”. T. Cho’lpon. 1999-yil.
30. S.S. Bulatov. “ Ganchkorlik va naqqoshlik yog’och o’ymakorligi atamalariga izoxli lug’at”. T. Mehnat. 1991-yil.
31.S.S. Bulatov, Xaydarov.M. “ Xunarmandchilik duolari”. T. 1994-yil.
32. S.S. Bulatov. “ O’zbekiston xalq amaliy bezak sanati”. T. Mehnat. 1991-yil.
33. S.S. Bulatov, Ashurova M.O. “ Amaliy san’at qisqacha lug’ati”. T. Qomuslar bosh tahriryati, 1992-yil.
34.T.Z. Soibov “Kompozitsiya” T. O’zbekiston nashriyoti. 1999 y.
35.T. Z. Soibov “Rangtasvir” o’quv kitobi. T. 1996 y
36. I. Azimov. “O’zbrkiston naqshu nigorlari”. T. G’ofur G’ulom. 1987-yil.
37. H. Egamov. “ Bo’yoqlar bilan ishlash”. T. O’qituchi. 1981-yil.